

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA  
MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI  
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**«DAK» ga taqdim etaman  
Tabiiy fanlar fakul'teti  
dekani:**

\_\_\_\_\_ dots.

**V.Azizov**

“ \_\_\_\_\_ “ \_\_\_\_\_ 2012 yil

**TABIIY FANLAR FAKUL'TETI**

**5440500-Geografiya kundizgi ta`lim yo`nalishi bo`yicha bakalavriat  
bosqichi bitiruvchisi**

**Axmadjanov Muxammadjon Adxamovichning**

**« Namangan viloyati tashqi iqtisodiy faoliyatidagi natija  
va muammolar »  
mavzuidagi**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Ilmiy rahbar :**

**g.f.n. dots. A.Baratov**

**Namangan – 2012**

BMIning birinchi bobi Milliy iqtisodiyot tizimida tashqi iqtisodiy faoliyatning geografik asoslari deb nomlangan bo'lib unda tashqi iqtisodiy faoliyatning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli va o'rni va tashqi iqtisodiy faoliyatni tashqil etish muammolarit va uni davlat tomonidan tartibga solish hamda tashqi iqtisodiy faoliyatni tashqil etishning xuquqiy va me`yoriy asoslari bayon etilgan. Ikkinchi bob Namangan viloyatida tashqi iqtisodiy faoliyatning rivojlanishi deb nom olgan bo'lib ushbu bobda asosan Namangan viloyatining iqtisodiy ko`rsatkichlari va tashqi iqtisodiy faoliyat uchun imkoniyatlari va mustaqillik yillarida Namangan viloyatida tashqi iqtisodiy faoliyatning rivojlanishi hamda Namangan viloyatida qo`shma korxonalarining rivojlamish xususiyatlariga to'xtalib o'tilgan . 3-bobni Namangan viloyatida tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlanishi muammolari va istiqboli deb nomlangan.

Bobning asosiy mazmuni Namangan viloyatida tashqi iqtisodiy faoliyatning rivojlantirish muammolari va Namangan viloyatida tashqi iqtisodiy faoliyatnin rivojlanish istiqbollariiga bag'ishlangan.

<b>Kirish</b> .....	3
<b>I Bob. Milliy iqtisodiyot tizimida tashqi iqtisodiy faoliyatning geografik asoslari.</b>	4
I.1. Tashqi iqtisodiy faoliyatning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli va o`rni	4
I.2. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tashqil etish muammolari va uni davlat tomonidan tartibga solish	11
I.3. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tashqil etishning xuquqiy va me`yoriy asoslari	19
<b>II Bob. Namangan viloyatida tashqi iqtisodiy faoliyatning rivojlanishi</b>	30
2.1. Namangan viloyatining iqtisodiy ko`rsatkichlari va tashqi iqtisodiy faoliyat uchun imkoniyatlari	30
2.2. Mustaqillik yillarida Namangan viloyatida tashqi iqtisodiy faoliyatning rivojlanishi (iqtisodiy- geografik tahlil)	40
2.3. Namangan viloyatida qo`shma korxonalarining rivojlanish xususiyatlari	47
<b>III Bob. Namangan viloyatida tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlanishi muammolari va istiqboli</b>	55
3.1. Namangan viloyatida tashqi iqtisodiy faoliyatning rivojlantirish muammolari	55
3.2. Namangan viloyatida tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlanish istiqbollari	60
<b>Xulosa</b>	67
<b>Foydalanilgan adabiyotlar</b>	70

## K I R I SH

**Mavzuning dolzarbligi.** Mamlakatimiz inson manfaatlari, huquq va erkinliklari yuksak qadriyat bo'lgan ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyat barpo etish yo'lidan izchil rivojlanib bormoqda. Iqtisodiyotimizning turli soha va tarmoqlari o'rtasidagi mutanosiblikning kuchayishi hamda barqaror o'sish sur'atlarining ta'minlanishi natijasida aholi daromadlari, turmush darajasining sezilarli ravishda oshishi ertangi kunga bo'lgan ishonchimizning tobora mustahkamlanib borishiga zamin yaratmoqda.

O'zbekiston iqtisodiyotining bir necha o'n yillar davomida bo'lgani kabi tashqi dunyodan ajralib qolishi hollariga barham berilganligi, mustaqil tashqi iqtisodiy yo'l shakllantirilib, amalga oshirilganligi iqtisodiy islohotlar birinchi bosqichining eng muhim natijasi bo'ldi.

Mamlakatimizda faol investitsiya siyosati olib borilishi natijasida hisobot davrida o'nlab zamonaviy korxonalar ishga tushirildi. **Jumladan, "Jeneral Motors Pavertreyn O'zbekiston"** qo'shma korxonasida yuqori texnologiyalar asosida avtomobil dvigatellari ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. SHuningdek, avtomobil generatori va kompressorlari ishlab chiqarish bo'yicha quvvatlar barpo etildi, energiyani tejaydigan lampalar ishlab chiqarish bo'yicha uchta loyiha amalga oshirildi.<sup>1</sup>

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarning chuqurlashuvi, barcha sohalarni qamrab olayotgan erkinlashtirish jarayonlari tashqi iqtisodiy faoliyat sohasiga yangi talablar qo'ymoqda, bu sohaning jamiyatimiz ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti uchun ahamiyati kuchaymoqda. SHunday qilib, tashqi iqtisodiy faoliyatni ilmiy tadqiq etish dolzarb masalaga aylanmoqda.

**Mavzuning o'rganilganlik darajasi.** Tashqi iqtisodiy faoliyatni tadqiq etishga iqtisod va iqtisodiy geografiya fani klassiklari asarlarida ham muhim o'rin berib kelingan. XX asrda tashqi iqtisodiy aloqalar zarurligi, ahamiyati va iqtisodiy taraqqiyotga ta'siri haqida rivojlangan mamlakatlarda ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. SHu bilan birga mazkur masala mamlakatning o'ziga xos sharoitlarini e'tiborga olgan holda o'rganib chiqilishi lozim. O'zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalari S.Fulomov, M.SHarifxo'jaev, V.CHjen, A.Soliev, X.Qayumov SH.Jumaxanov M.Hakimova, X.Mirzaaxmedov va Respublikamizning boshqa tadqiqotchilar ilmiy izlanishlari, asarlari va maqolalarida yoritilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** Namangan viloyatida tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlanishi, natijalar va muammolarini ilmiy o'rganib chiqishdir. Buning uchun tadqiqot oldiga viloyat tashqi iqtisodiy faoliyatida iqtisodiy islohotlar jarayoni, xorijiy investitsiyalarni amalga oshirilishi, ularning huquqiy va me'yoriy asoslari, shuningdek viloyat iqtisodiyotida tashqi iqtisodiy faoliyatning to'tgan o'rni, o'ziga xos tomonlarini yoritib berish va ilmiy tadqiq qilish asosida takliflar ishlab chiqish vazifasi qo'yilgan.

**Tadqiqotning ob'ekti va predmeti.** Tadqiqot olib borish davomida ilgari surilgan taklif va mulohazalarni amaliyotga tadbiq etish va ularning samaradorlik darajasini aniqlash hamda belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun tadqiqot ob'ekti sifatida Namangan viloyatidagi tashqi iqtisodiy faoliyatning jarayonlari olindi.

**Tadqiqotning ilmiy amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalari Namangan viloyatida tashqi iqtisodiy faoliyatni takomillashtirilishi yo'nalishlarini ilmiy asoslashga xizmat qiladi. Ishda olfa surilgan takliflarning joriy etilishi tashqi iqtisodiy aloqalar samaradorligini oshirishga ko'maklashishi mumkin. BMIning tarkibiy tuzilishi. Mazkur BMIsi Kirish, 3 ta bob, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan

---

<sup>1</sup> 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi, 2012 yil 20 yanvar, №14

## **I. Bob. MILLIY IQTISODIYOT TIZIMIDA TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNING GEOGRAFIK ASOSLARI**

### **1.1. Tashqi iqtisodiy faoliyatning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli va o`rni**

Bozor munosabatlarga o`tgan va o`tayotgan mamlakatlar uchun tashqi iqtisodiy faoliyat va tashqi savdo hayotiy zaruratdir. Jahon mamlakatlarida umumjahon xo`jaligi tobora rivojlanib, takomillashib borgan sari davlatlararo iqtisodiy munosabatlarning doirasi va ko`lami ham kengaya boradi. Mamlakat iqtisodiyotining umumjahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvining asosiy sharti ham tashqi iqtisodiy faoliyatning rivojlanishida yaqqol namoyon bo`adi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat deganda, mamlakatdagi yuridik va jismoniy shaxslarning xorijiy davlatning yuridik va jismoniy shaxslari xamda xalqaro tashqilotlar bilan olib boradigan o`zaro manfaatli iqtisodiy aloqalari (faoliyati) tushuniladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning rivojlanganlik darajasi asosan mamlakatning iqtisodiy taraqqiyot darajasiga, davlatning tashqi siyosati va strategiyasiga bevosita bo`liqdir. SHu bilan birgalikda tashqi iqtisodiy faoliyatga ta`sir ko`rsatuvchi bir qator omillar mavjud bo`lib, ular quyidagilardan iborat:

- mamlakatning tabiiy - ijtimiy sharoitlari;
- mamlakatning industrial taraqqiyot darajasi;
- ishlab chiqdrishning ilmiy -texnikaviy va texnologik salohiyati;
- mamlakatdagi demografik vaziyat va aqliy salohiyat;
- xalq mentaliteti va milliy an`analari;
- aholini`g xarid qobiliyati.

Har qanday davlat ham o`zining tashqi iqtisodiy faoliyat strategiyasi va yo`nalishlarini o`zining hayotiy ehtiyojlaridan, mamlakatning mudofaa xavfsizligi manfaatlaridan va, nihoyat, o`z aholisining turmush darajasini oshirish maqsadlaridan kelib chiqqan xolla belgilaydi.

O`zbekistan Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyat davlat tomonidan tartibga solinadi. Buning uchun, avvalambor, bu faoliyatning qonunchilik negizini shakllantirish, uni rivojlangan mamlakatlarda amal qiluvchi qonunchilikka tobora muvofiqlashtira borish o`ta muxim ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiyoti rivojlanayotgan, o`z tashqi iqtisodiy aloqalarini faollik bilan kengaytirib borishga intilayotgan mamlakat, so`zsiz, erkin bozorning stixiyasigagina umid qilib qolmaydi: davlat rivojlanishning kafili, ta`minlovchisi sifatida faol ravishda harakat qilishi lozim. Tashqi iqtisodiy aloqalarni davlat tomonidan tartibga solinishi ob`ektiv ravishda zarur. SHu bilan birga, tashqi savdoni tartibga solish mexanizmlari va tashqi iqtisodiy faoliyatning boshqa shakllarini o`zgarib borayotgan zamonaviy ichki va tashqi sharoitlarga moslashtirish, talab qilinadi. O`zbekistonda mazkur sohadagi o`zgartirishlar ayni tashqi iqtisodiy siyosatni barcha yo`nalishlar bo`yicha erkinlashtirish bilan va birinchi navbatda respublikada «ochiq model»ni shakllantirish bilan bo`liq bo`lgan edi.

O`zbekiston uchun iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish «ochiq model»ning afzalliklari quyidagilardan iborat:

➤ xalqaro savdoga boradigan yalpi ichki mahsulot (YAIM) ulushi ko`paygan sayin mamlakat jahon bozorining kon`yunkturasi tufayli, xalqaro mehnat taqsimotining afzalliklaridan foydalanib, o`z milliy daromadi ko`payishini tezlashtirish va yuksaltirishning sifat jihatidan yangi imkoniyatiga ega bo`ladi. SHunga ko`ra, uning milliy xo`jaligida tashqi iqtisodiy aloqalar jadal iqtisodiy yuksalishning muxim omili bo`lmoqda;

➤ jahon xo`jaligiga qo`shilish mamlakatda uning iqtisodiyotida hali sust bo`lgan yoki mavjud bo`lmagan bozor mexanizmlari va institutlarini jadal rivojlantirish imkonini beradi. Bu esa, birinchi navbatda, raqobat, fond bozori, kreditlash va sufo`rtalashga taalluqli bo`lib, kengroq ma`noda aytganda, O`zbekistonda haqiqiy ko`p ukladli iqtisodiyotni shakllantirishna ko`maklashadi;

➤ chet elga mahsulot etkazib berishlarni dunyoda umum qabul qilingan tijorat asosiga o`tkazish ularni qulagan ma`muriy buyruqbozlik tizimiga xos taqsimot va narxlarga oid tarkibiy qismlarining tashqi iqtisodiy quyqalaridan holos etadi. SHunga ko`ra, O`zbekiston tashqi savdosi samaradorligini oshiradigan rezervlar yuzaga chiqa boshlaydi;

➤ O`zbekiston jahon bozoridagi extiyojlar va resurslarning o`zgargan balansini hisobga olib, o`z milliy manfaatlariga javob beradigan va respublikaning yangi tashqi iqtisodiy ixtisoslashuvini shakllantiradigan o`z mustaqil tuzilmaviy siyosatini ishlab chiqarmoqda, o`z eksportida xom ashyo tarmoqlari mahsulotlari ulushini asta-sekin kamaytirib, tayyor mahsulot ulushini o`rinishmay oshirib bormoqda;

➤ jahondagi o`zgarib borayotgan jufrofiy siyosiy voqeliklar endilikda O`zbekistonning xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashqilotlar faoliyatida siyosiy bayonotlar bilan chiqish tarzida emas, balki bevosita xo`jalik ishtirokchisi sifatida qatnashishini, o`z davlat iqtisodiy manfaatlarini amalga oshirish uchun ko`p tomonlama asosda ularning yordamidan foydalanishini faollashtirmoqda.

SHu bilan birga, «ochiq iqtisodiyot», mutaxassislar fikricha, xalq xo`jaligining takror ishlab chiqarishga va tuzilmaga oid mutanosibliklarini jiddiy o`zgartiradi, o`zining qaltis tomonlariga ega bo`ladi va shu bois u bozor munosabatlarini rivojlantirishning murakkab va qiyin davrida barcha illatlardan holos etadigak qandaydir «ming dardga davo» sifatida tushunilmasligi kerak.

Xalqaro iqtisodiy aloqalar o`z mazmun - mohiyatiga ko`ra har qanday davlat iqtisodiyotining barqarorligi va rivojlanishiga kuchli ta`sir ko`rsatuvchi omilga aylanib qoldi. SHuning uchun xo`jalik aloqalarini xalqaro miqyosda integratsiyalashuvini kengaytirish va chuqurlashtirishga berilayotgan e`tibor tobora kuchayib bormoqda.

Tashqi iqtisodiy aloqalarni taraqqiy ettirish mustaqil rivojlanish yo`liga o`tgan respublikamiz uchun, ayniqsa, muxim ahamiyatga ega. Sobiq Ittifoq tarkibida bo`lgan vaqtda O`zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan mustaqil ravishda aloqa qilish imkoniyatidan mahrum bo`ldi. Xo`jalik yuritishning yopiq sharoitida mamlakatda faqat orzu qilish mumkin edi, holos. Ishchi kuchining xalqaro miqyosida migratsiyasi mutlaqo rivojlanmagan edi. SHuning uchun o`tkazilayotgan iqtisodiy islohotlar eng qisqa muddatlarda O`zbekistonning jahon xo`jalik tizimiga keng huquqli a`zo bo`lib kirishi va barcha mamlakatlar bilan o`zaro manfaatli hamkorlik qilishini ta`minlashga qaratilgan.

Bu bir tomondan yangi texnologiyalarni boshqarish tajribasi va bilimlari, xorijiy sarmoyalarni mamlakatimizga olib kirilishini ta`minlasa, ikkinchi tomondan, O`zbekistonning boy tabiiy resurslari va ishlab chiqarish imkoniyatlaridan foydalanish samaradorligini oshirishga ko`maklashadi.

Jahonning 40 dan ortiq yirik davlatlari qatorida xom ashyoning katta zahiralari, sanoat va qishloq xo`jalik ishlab chiqarishning rivojlangan Tormoqlariga, shuningdek shakllangan ishchi kuchiga ega bo`lgan mamlakatimizning jahon bozoridagi dastlabki qadamlari o`zining samarasini bera boshladi.

XX asrning so`nggi yillarida jahonning etakchi mamlakatlari iqtisodiyotidagi tub sifat o`zgarishlarining kuchayib borishi xalqaro munosabatlarning hozirgi bosqichida quyidagi xususiyatlarini belgilab beradi:

**Birinchi**an, xalqaro ayirboshlashning tarkibiy tuzilishi sezilarli darajada o`zgardi: mamlakatlar mahsulotlar ayirboshlashdan tashqari turli xil xizmatlar, moliya kapitali, ishchi kuchi, fan-texnika axborotlari, yangi texnologiyalar, boshqaruv usullari va boshqalar bilan faol savdo- sotiq olib borishga o`tdilar.

**Ikkinchi**an, kapitalni chetga chiqarilishining ko`payishi va mamlakatlar o`rtasida ayirboshlashning kengayishi zamonaviy xalqaro iqtisodiy aloqalarni mamlakatlararo

uyʻunlashishiga olib keldi.

Bunday xususiyat oʻz faoliyatini bir qancha davlatlar hududida amalga oshiradigan transmilliy korporatsiyalar (TMK) va transmilliy banklar (TMB) sonining koʻpayib borishida oʻz aksini topdi.

Hozirgi vaqtda jahonda 10 mingdan ortiq TMK mavjud boʻlib, ular jahon sanoat ishlab chiqarishning toʻrt dan uch qismidan koʻproqini, tashqi savdoning esa yarmidan koʻproqini nazorat qilib turadi. Masalan, «Djeneral Motors», «Roil Datch SHell»; kabi yirik TMK lar oboroti hajmi Oʻzbekistonda yaratilgan yalpi milliy mahsulot miqdoridan ortiqdir. Uz ixtiyorida behisob moddiy va moliyaviy qudratni jamlagan bunday korporatsiyalar va banklar koʻpchilik mamlakatlarning iqtisodiy siyosatiga, xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishiga jiddiy taʻsir koʻrsatmoqda.

**Uchinchidan**, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning zamonaviy bosqichida yana bir muxim xususiyat namoyon boʻldi, yaʼni ayirboshlashda mamlakatlar toʻtgan oʻrnining oʻzgarishi jarayoni sodir boʻlmoqda.

Hozirgi kunda jahon xoʻjaligi va xalqaro ayirboshlashning umumiy yoʻnalishlari va oʻsish surʻatdarini rivojlangan mamlakatlar belgilab turadi. Bu mamlakatlar er yuzasidagi davlatlarning 15 foizini tashqil etadi. Hamda ularda jahon aholisi 25 foizi istiqomat qiladi. Bu mamlakatlar dunyoda xosil qilinayotgan elektr quvvatlarning 75 foizini, yoqilʻining 80 foizi, yoʻroch mahsulotlarining 85 foizi va poʻlatning 72 foizini isteʻmol qilishadi. Sanoati taraqqiy etgan mamlakatlarning oʻzaro savdosi jahon savdosining 70 foizini tashqil etadi.

Maʼlumki, yaqin oʻtmishda mamlakatimiz iqtisodiyoti sobiq ittifoqdosh respublikalar iqtisodiyoti bilan chambarchas boʻlgan edi. SHu bois hozirgi kunda aloqalar ikkita yoʻnalish boʻyicha rivojlanib bormoqda. Ularning birinchisi MDH mamlakatlari deb ataluvchi sobiq ittifoqdosh respublikalar bilan boʻlsa, ikkinchisi mamlakatimizning oʻzaro iqtisodiy aloqalari ilgari umuman oʻrnatilmagan xorijiy davlatlar bilan olib borilmoqda. Agar birinchi yoʻnalish Oʻzbekistonni kam xarajatlar sarflab, keng koʻlamda xom ashyo, tayyor mahsulotlar, texnologiyalar fan texnika axborotlari bozorga kirib borishini taʼminlasa, ikkinchi yoʻnalish respublika iqtisodiyotini keng ravishda jahon hamjamiyatiga birlashuvini taʼminlab beradi.

Oʻzbekistonning jahon hamjamiyatiga qoʻshilishi mamlakatimizdagi mavjud imkoniyatlarni obʻektiv baxolash va ulardan milliy manfaatlar yoʻlida imkoni boricha toʻliq foydalanishni talab qiladi.

Oʻzbekiston mustaqillikning dastlabki davridayoq oʻz tashqi iqtisodiy sjsatining quyidagi maqsadlari va asosiy yoʻnalishlarini belgilab oldi:

➤ eksportni rivojlantirish va uning oqilona tarkibini shakllantirish. CHunki eksportga yoʻnaltirilgan iqtisodiyotni shakllantirish milliy ishlab chiqarishni texnik - iqtisodiy jihatdan jahon darajasiga koʻtaradi, uning tuzilishini takomillashtiradi, respublika valyuta zahirasi koʻpaytiradi;

➤ import tuzilishini takomillashtirish yaʼni uni milliy iqtisodiyotni zamonaviylashtirish va rivojlantirish omiliga aylantirish;

➤ ishlab chiqaruvchi kuchlarni sifat jihatidan yangi bosqichga koʻtarish uchun chet el sarmoyalarini jalb etish;

➤ Oʻzbekistonning iqtisodiy xavfsizligini taʼminlash, yaʼni maʼlum darajada tashqi iqtisodiy faoliyatda eksport -inport operatsiyalari, valyutani olib chiqish, boshqa xalqaro bitimlar ustidan davlat nazoratini oʻrnatish.

YUqoridagilardan kelib chiqib, respublikamizning tashqi iqtisodiy siyosati aniq belgilangan maqsadlar va ularni amalga oshirishga qaratilgan quyidagi tadbirlarni oʻz ichiga oladi.

**Birinchidan**, Respublika milliy iqtisodiyotning kuchli eksport boʻlinini tashqil etuvchi va uni jahon bozorida munosib oʻringa ega boʻlishini taʼminlovchi sohalarni aniqlash.

**Ikkinchidan** iqtisodiyotning eksport boʻlinida davlat tomonidan qoʻllao - quvvaglash usullaridan keng foydalanish. Bu usullar quyidagilar:

➤ eksportga yoʻnaltirilgan ishlab chiqarishni kengaytirish uchun imtiyozli foizlar boʻyicha koʻp muddatli kreditlar ajratish,

investitsiyalarni sufo`rtalash;

➤ davlat tomonidan respublikamizga ilfor texnologiyalar, tajribalar, bilimlarning kirib kelishiga subsidiyalar ajratish:

➤ eksport va importni litsenziyalash yoki chetga tovar chiqarishga va chetdan uni olib kirishga ruxsatnoma berish;

➤ ishlab chiqarish jarayonida qatnashuvchi, xorijdan keltiriladigan xom ashyo va materiallar, asbob -uskunalar va jihozlar ulushini boskichma - boskich kamaytirish va boshqalar.

SHu bilan birga, tashqi iqtisodiy siyosat milliy valyutani mustahkamlash va uning boshqa valyutalar bilan erkin almashuvini ta`minlash, tashqi iqtisodiy faoliyatining me`yoriy va huquqiy asoslarini xalqaro talablar darajasiga etkazishni nazarda tutadi.

Hozirgi paytda O`zbekiston sanoatining aksariyati umuman tijorat faoliyatiga va xususan, xalqaro raqobatga tayyor emas: hozircha talabning deyarli barcha sohalarida import mahsulot mahalliy tovarlardan, ayniqsa iste`mol tovarlaridan ustun kelmoqda. O`zbekistonda yuzaga kelayotgan iste`molning o`ziga xos modelida sifat asta sekin andoza bo`lib qolmoqda.

Respublika tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantirishda iqtisodiyotga xorijiy sarmoyalarni jalb etish uchun qulay sharoit yaratishga hamda zarur bo`lgan tashqilot va muassasalar tuzishga katta ahamiyat berilmoqda. Bular jumlasiga tavakkalchilik xatarlari keltiradigan zararni qoplaydigan «O`zbekinvest» milliy sufo`rta kompaniyasini, turli sufo`rta kompaniyalarini, Vazirlar Mahkamasi huzurida BMT bilan birgalikda tashqil qilingan investitsiyalarga ko`maklashuvchi xizmatni, Davlat mulk qo`mitasi xuzuridagi ko`chmas mulk va xorijiy investitsiyalar agentligi kabilarni kiritish mumkin.

O`zbekiston Respublikasi ko`p tomonlama xalqaro iqtisodiy hamkorlik tashqilotlari faoliyatida qatnashmoqda, Birlashgan Millatlar Tashqilotining iqtisodiy muassasalari, Jahon banki, Xalqaro Valyuta Fondi, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Iqtisodiy taraqqiyotga ko`maklashuvchi tashqilot, Xalqaro mexnat tashqiloti, Jahon so`liqni saqlash tashqiloti kabi va boshqa obru-e`tiborli xalqaro moliyaviy-iqtisodiy tashqilotlarga a`zo bo`lib kirdi hamda ularda faol siyosat o`tkaza boshladi.

Ko`pgina xalqaro tashqilotlar - BMT, XVF, Jahon banki, Evropa tiklanish va taraqqiyot banki, Evropa Ittifoqi Komissiyasi va boshqa tashqilotlar Respublikada o`zlarining mintaqaviy vakolatxonalarini ochdilar va O`zbekistonlik sheriklar bilan faol hamkorlik kilmoqdalar.

Xalqaro Valyuta Fondi, Jahon banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi ishtirokida ishlab chiqilgan hamda, jumladan, respublikada kichik va o`rta biznesni. rivojlantirishga ko`maklashuvchi bir qancha loyihalar, shuningdek iqtisodiyotning eng manfaatli sohalaridagi loyihalarni moliyaviy jihatdan ta`minlash dasturi amalga oshirilmoqda.

Respublikada tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shufullanishdagi zarur bo`lgan barcha muassasallr amalda yangidan barpo etildi. Tashqi iqtisodiy fadliyatni rivojlantirishda xo`jalik yurituvchi sub`ektlarning mustaqilligini oshirish, marketing tizimini takomillashtirish va mamlakat tovarlarini xalqaro bozorlarga keng ko`lamda kiritish maqsadida O`zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi O`zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi etib qayta tashqil qilindi. Bundan tashqari tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki, bojxonalar xizmati tashqil etildi. Vazirlar Mahkamasida, vazirliklar va idoralarda, korporatsiyalar, kontsernlar, uyushmalarda va mahalliy boshqaruv idoralarida tegishli tashqi iqtisodiy bo`limlar tuzildi va ish olib bormoqda.

## **1.2. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tashqil etish muammolari va uni davlat tomonidan tartibga solish**

O`zbekistonda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning hozirgi bosqichida tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish mamlakatimizning XXI asr boshidagi rivojlanish strategiyasining eng ustuvor yo`nalishlaridan hisoblanadi.

Tashqi savdoni erkinlashtirish iqtisodiyot ochiqlik darajasini o`shishiga, ishlab chiqarish samaradorligining oshishiga va raqobatbardoshliqning kuchayishiga, mamlakat eksport salohiyatini oshirishning ichki imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi.

SHu munosabat bilan O`zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatini erkinlashtirish yo`nalishlari, usullari va yo`llarini belgilab olishda tashqi iqtisodiy aloqalarning bugungi holati, erishgan natijalar va muammolarni tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillik yillarida tashqi savdoning geografik va Tormoq tarkibi sezilarli darajada o`zgargani quvonarli hol, albatta.

Tashqi savdo aylanmasida uzoq xorij mamlakatlari ulushining o`sib borishi O`zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalari faollashib borayotganligidan dalolat beradi. SHu bilan birga bunday tendentsiyaning salbiy jihati ham mavjud. Gap shundaki, O`zbekistonning geografik joylashuvi dengiz yo`llariga bevosita chiqish imkonini bermasligi, tashqi iqtisodiy faoliyatda transport harajatlarining yuqori bo`lishiga olib keladi. SHu sababli qo`shni mamlakatlar bilan savdo iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish mahsulot tannarxiga ijobiy ta`sir ko`rsatadi va raqobatbardoshlik darajasining oshishiga olib keladi.

Hozirgi sharoitda tashqi iqtisodiy faoliyat boija har qanday iqtisodiy faoliyat kabi ma`lum tartiblashga muxtojdir. Turli mamlakatlar o`rtasida o`zaro iqtisodiy bo`liqlikning kuchayishi va dunyo bozorida raqobatning keskinlashuvi, jahon iqtisodiyotida transmilliy korporatsiyalar rolining oshishi, valyuta kurslarining barqaror emasligi, to`lov balanslarining taqchilligi, rivojlanayotgan mamlakatlar qarzlarning yanada o`shishi va hozirgi zamon iqtisodiy munosabatlari rivojlanishining boshqa xususiyatlari ularni nafaqat alohida davlatlar darajasida, balki iqtisodiy tashqilotlar darajasida ham tartibga solish zarurligini belgilaydi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish, davlat tashqilotlari tomonidan chora-tadbirlar majmuasini ishlab chiqish va uni bajarilishini ta`minlash jarayonini o`zida aks ettiradi. Bu chora-tadbirlar mamlakatning xalqaro ixtisoslashuvidagi ishtirokidan keladigan foydani olish, jahon xo`jaligidagi davriy pasayishlarning ta`sirini yo`qotish yoki kamaytirish, shuningdek valyuta kurslarining tebranishi va jahon iqtisodiyotidagi boshqa salbiy hodisalarning ichki iqtisodiyotga ta`sirini pasaytirishga yoki yo`qotishga, dunyo bozorida milliy ishlab chiqarishning mavqeini mustahkamlashga yo`naltirilgan. Boshqacha aytganda, davlat tomonidan tartiblash har bir mamlakat tashqi iqtisodiy siyosatining asosiy vazifasini, ya`ni milliy iqtisodiyotni samarali rivojlanishi uchun qulay tashqi sharoitlar yaratishni ko`zda tutuvchi chora - tadbirlarni amalga oshirishdir.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartiblashga tub iqtisodiy islohatlar amalga oshirilayotgan mamlakatlarda katta ahamiyat beriladi. Ayniqsa O`zbekistonda iqtisodiyotni barqarorlashtirish va xo`jalik yuritishning yangi modelini shakllantirishda bosh islohotchi sifatida davlatga eng muxim rol ajratilgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlatlararo tartibga solish xalqaro iqtisodiy tashqilotlar tomonidan ishlab chiqiladigan va ishtirokchi mamlakatlar manfaatlarini ta`minlashga, xalqaro ayriboshlashni ra`batlantirishga va uning samaradorligini oshirishga, umuman jahon xo`jaligini barqaror bo`lishiga va rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi demakdir. Tashqi iqtisodiy faoliyatning alohida davlat darajasida ham, davlatlar aro darajada xam tartibga solish turli mamlakatlardagi sheriklar o`rtasida amalga oshiriladigan iqtisodiy operatsiyalarga turli-xil usullar, vositalar, yo`l-yo`riqlar yordamida ta`sir etish jarayonini aks ettiradi. Xalqaro iqtisodiy aloqalar rivojlangan sari ta`sir etish usullari xam takomillashib bormoqda. SHuningdek, o`zaro munosabatlarning murakkablashuvi va yangi ustuvorliklari tufayli tashqi savdoning valyuta kredit bitimlarini tuzishda, xorijiy sarmoyalash va boshqa operatsiyalarda sheriklarning maqsad va manfaatlarini to`laroq hisobga oluvchi yangicha yondashuvlar yuzaga kelmoqda.

Hozirgi globalashtirish sharoitida davlatning jami iqtisodiy funksiyalari davlat boshqaruvi mexanizmlari orqali amalga oshiriladi. Xususan, ma`muriy organlarning ko`pincha iqtisodiy tusdagi turli shakl va usullardan foydalangan holda tadbirkorlik faoliyatiga aralashuvi yo`li bilan zamonaviy bozor xo`jaligini yuritish modelida aynan davlat boshqaruvi masalalariga alohida o`rin ajratiladi.

Jahon bozorida milliy sarmoyaning raqobatbardoshligini ta`minlash zarurati eng ko`p rivojlangan mamlakatlarni o`tgan asr boshlaridayoq soliq imtiyozlari berish, xom ashyo va oziq-ovqat iste`moliga doyr chora-tadbirlarini tartibga solish, hatto mehnat majburiyatini joriy etish

yo`li bilan maxalliy ishlab chiqaruvchini raʼbatlantirishning davlat tomonidan kuriladigan chora-tadbirlarining qo`llashga undadi. Bularni barchasi aynan tashqi savdo faoliyatining sezilarli darajada o`shirishini ta`minlashga qaratilgan edi.

Zamonaviy jahon amaliyotida davlat boshqaruvining ko`pgina usullari ma`lum, bular-uzoq muddatga rejalashtirish va o`rtacha muddatga indikativ rejalashtirish, kredit va fiskal tushdagi choralar, ma`muriy va tashqiliy-xuqukiy shakllar, bozor raqobati va monopoliyadan chiqarishdir. Uzoq muddatli davlat boshqaruvi iqtisodiyotini prognozlash, dasturlashtirish va strategik rejalashtirish nuli bilan ta`minlanadi. U asosan raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni ta`minlay oladigan milliy tarmoqlarni rivojlantirishda strategiya ustuvorliklarni shakllantirish maqsadini ko`zlaydi, chunki faqat miqdor va sifat jihatidan salmoqli sanoat salohiyatiga zga bo`lgandagina jahon bozoriga chiqish mumkin.

O`zbekistonning jahon xo`jaligi tizimiga faol jalb etilishi, xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashqilotlar bilan iqtisodiy aloqalarning o`rnatilishi tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarish tizimini tubdan qayta qurishni talab etdi.

**Birinchidan.** O`zbekiston mustaqil davlat bulgach, tashqi iqtisodiy munosabatlar soxasida mustaqil siyosat ishlab chiqish va uni amalga oshirishga mas`ul bo`lgan maxsus tashqilotlar tuzish takozo etildi.

**Ikkinchidan,** Respublikada milliy iqtisodiyotni tubdan qayta qurish jarayoni boshlanishi tufayli tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shurullanuvchilarning soni kengaydi, ularga turli (savdo, sarmoyalar, bank va boshqalar) tashqi iqtisodiy bitimlarni tuzishda keng xuquqlar beriddi. Bu soxada shartnomalarni, bitimlarni faqat davlat idoralari (Tashqi iqtisodiy faoliyat agentligi, Milliy bank) emas, balki mulkchilikning boshqa xakllariga asoslangan (xususiy shirkat, xissadorlik, xorijiy va boshqalar) turli birlashmalar, tashqilotlar, korxonalar xam tuzishi mumkin.

Hozirgi paytda respublikada yukoridagi xolatlarni xisobga olgan xolda, tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarish tizimi shakllanmokda va uning tarkibiga kirgan tashqilotlar faoliyati takomillashtirilmokda xamda asosiy vazifalari aniqlanmokda. Bozor iqtisodiyotiga o`tishning hozirgi boskichida tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarish tiziminining asosiy vazifalari kuydagilardan iborat:

- respublika milliy manfaatlariga javob beruvchi va uning jahon xamjamiyatidagi o`rnini ta`minlovchi tashqi iqtisodiy siyosatni ishlab adkish va amalga oshirish;
- tashqi iqtisodiy faoliyatni tashqil etishning qonuniy asoslarini urganish;
- mulkchilik ko`rinishining turli shakllaridan qat`iy nazar, tashqi iqtisodiy faoliyatni barcha ishtirokchilari uchun eng yukori samaradorlikni ta`minlash;
- milliy iqtisodiyotni muvaffakiyatli islox etish uchun tashqi iqtisodiy omildan tulik foydalanish;

Bugungi kunga kelib, tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarish quyidagi tashqilotlar tomonidan amalga oshiriladi.

Respublika Prezidenti, Oliy Majlis va Vazirlar Maxkamasi O`zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyatining rivojlanish strategiyasini aniqlaydi, uning normativ bazasini ishlab chikadi va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning barcha ishtirokchilari xarakatiga umumiy raxbarlikni va ular ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi - yagona iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish, xalqaro aloqalarning barcha ishtirokchilari, ya`ni davlat, shirkat, paychilik, jamoat, xususiy tashqilotlar faoliyatini nazorat qilishni ta`minlaydi.

- tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning favlat usullarini ishlab chikadi va kullaydi (bojxona tariflari, eksport kvotalari, tashqi iqtisodiy faoliya bilan shutullanishga ruxsat va boshqalar);
- agentlikka takdim etilgan ruyxatga moe keluvchi maxsulotlar buypcha eksport - import operatsiyalarini o`tkazadi;
- tashqi iqtisodiy faoliyat sub`ektlari tomonidan tuziladigan tashqi iqtisodiy shartnoma va kelishuvlarni tekshirishni amalga oshiradi;
- «Innovatsiya», «Uzagroimpeks», «Interservis», «Uztashqitrans», «Uzekspomarkaz»-

tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi tizimidagi yirik xo`jalik xisobidagi tashqi savdo va iqtisodiy tashqilotlar xisoblanadi. Ular shutashqilotlaruchunbelgilangan maxsulot va xizmat turlari bo`yicha tijorat- xo`jalik faoliyatini amalga oshiradilar.

O`zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatini boshqarish tashqilotlarining shartli tuzilishi:

Prezident va Oliy Majlis apparati.

Vazirlar Maxkamasi.

Tormoq tashqilotlari.

Tashqi iqtisodiy kompleks.

Funksional tashqilotlar.

Qishlok va suv xo`jaligi vazirligi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki.

Makroiqtisodiyot vazirligi.

Davlat kimyo sanoati kontserni.

Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi.

Moliya vazirligi.

Davlat metallurgiya sanoati kontserni.

Tashqi ishlar vazirligi.

Markaziy bank.

«Uzbeksavdo» uyushmasi.

Davlat soliq qumitasi.

«Uzdonmaxsulot».

«Uzavtotrans».

Uzsayyox kurilishi.

O`zbekiston temir yullari korporatsiyasi.

«Uzulgurjibirja savdo» aksiyadorlik uyushmasi.

Respublika soliq qumitasi tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishdagi soliq solish masalalarini tartibga soladi, bu masalalar bo`yicha me`yoriy xujjatlarni ishlab chikadi va ularga rioya qilinishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Bozor iqtisodiyotini sharoitida tashqi iqtisodiy aloqalarning asosiy iqtisodiy ishtirokchilari mulkchilikning turli ko`rinishidagi korxonalar va tashqilotlar bo`lib koladi. SHu jumladan, korxonalar xam tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari bo`lib, «Tashqi iqtisodiy faoliyat to`rиси»dagi K,onunga muvofik xorijiy sheriklar bilan eksport-import, sarmoyaviy va boshqa bitimlar tuzishda ma`lum xuquqlarga egadirlar. Korxonalar va tashqilotlarga banklarda o`z valyuta xisoblarini ochishga va bu mablardan foydalanishga ruxsat berilgan.

Tashqi iqtisodiy siyosat-bu milliy joriy va strategik maqsadlarga muvofik tashqi iqtisodiy munosabatlar soxasida davlat idoralari tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar yirindisidir.

Urushdan keyingi davrda o`z iqtisodiyotini jadal rivojlantira olgan aksariyat mamlakatlar uchun davlatning puxta ishlangan tashqi iqtisodiy siyosati erishilgan muvaffaqiyatlarning muxim omili bo`ldi (YAponiya, Janubiy Koreya, Singapur, Xitoy va boshqalar).

Biror davlatning uz milliy iqtisodiyotining chet el raqobatidan himoya qilishga qaratilgan iqtisodiy siyosati proteksionizm deb ataladi va bu siyosatning ayrim usullari xalqaro airiboshlashni birmuncha erkinlashuviga karamay, barcha mamlakatlar tomonidan kullaniladi.

O`zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan boshlab jahon tajribasini xamda milliy iqtisodiyot rivojlanishining uziga xos xususiyatlarini xisobga olgan xolda o`z tashqi iqtisodiy faoliyatini amalga oshira boshladi.

Ma`lumki, tarixan karor topgan ob`ektiv xolatga ko`ra, O`zbekiston sobiq Ittifoqdagi respublikalar iqtisodiyoti bilan chambarchas bo`langan edi. SHu bois O`zbekistonning tashqi iqtisodiyoti faoliyatini ikki yo`nalishda, ya`ni:

- birinchidan, Mustaqqil Davlatlar Xamkorligiga a`zo davlatlar bilan;
- ikkinchidan, ilgari bevosita o`zaro munosabatlarda bo`lmagan xorijiy davlatlar bilan olib borilmokda;

O'zbekistonda tashqi iqtisodiy sohadagi davlat siyosatini shakllantirishga sobiq ittifoqdan meros bo'lib qolgan iqtisodiy aloqalarning xususiyatlari xam ta'sir etmokda. Bu xususiyatlar quyidagilardan iborat.

➤ asosan an'anaviy tovarlar savdosi bilan cheklanib kolish, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning xizmatlar va axborotlar, moliya, kapital va ishchi kuchi bilan ayriboshlash kabi yo'nalishlari rivojlanmaganligi;

➤ import eksportdan ustunligi, masalan 1990 yilda Respublikamizda tashqi savdo aborotidan tashib keltirish xajmi 2,8 mlrd, so'mni, chetga maxsulot chiqarish xajmi 1,2 mlrd, so'mni tashqil etgan edi. xozirda eksport va import balanslashdi. Lekin bunga importni kattik cheklab erishilmokda;

➤ Eksport va import strukturasi samarasizligi: chetga asosan xom ashyo chikarilgan, chetdan xalk iste'moli mollari keltirilgan. Bunday xolat Respublika iqtisodiyotida nomutanosiblikni yanada chuqurlashtiradi. SHuning uchun xam O'zbekistonning jahon xamjamiyatiga kushilishi respublikaning mavjud imkoniyatlarini ob'ektiv baxolanishini va ulardan milliy manfaatlar yulida imkoni boricha tulik. foydalanishni talab etadi.

O'zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish uning me'yoriy-xuquqqa bazasini yaratish, tegishli xuquqiy o'zgarishlarni amlga oshirish bilan bir qatorda iqtisodiyotimizni tashqi dunyo uchun yanada kengrok. ochish va uni. erkinlashtirish sari jiddiy qadamlar kuyilishini takozo etmokda.

Mamlakatimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish siyosati tashqi savdoni, xorijiy investitsiyalarni jalb etish tartiblarini erkinlashtirish, tashkp iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning me'yoriy xuquqiy asoslarini shakllantirish bilan bo'lik chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish va amalga oshirish asosida olib borilmokda.

### **1.3. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tashqil etishning xuquqiy va me'yoriy asoslari**

Jahon tajribasi ko'rsatishicha, isloxotlarning natijalari va umuman mamlakatning ichki rivojlanishi davlat tomonidan amalga oshiriladigan tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatining samaradorlik darajasiga xamda uning faollik bilan amalga oshirishga bo'lik bo'ladi. Suveren davlat bo'lgan O'zbekiston xorijiy mamlakatlar tajribasini xisobga olib, mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlabok uzining tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy ustuvor yo'nalishlarini belgilab olishga va xalqaro munosabatlarda uzining ishtirok etish strategiyasini ishlab chiqishga kirishdi. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatiga quyidagi muxim tamoyillar asos qilib olindi:

1. O'zaro manfaatlarini xar tomonlama xisobga olgan xolla davlat milliy manfaatlarining ustunligi;

2. Teng xuquqlilik va o'zaro manfaatdorlik, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;

3. Mafko'raviy qarashlardan qat'iy nazar xamkorlik qilish uchun ochiqlik, umuminsonii kadriyatlariga, tinchlik va xavfsizlikni saklashga sodiqlik;

4. Xalqaro xuquq normalarining ichki davlat normalaridan ustuvorligi;

O'zbekiston bu tamoyillarga amal qilar ekan, qisqa muddat ichida jahon xamjamiyatiga kirish yulida muayyan natijalarga erishdi, jahon xo'jalik tizimiga izchillik bilan integratsiyalanish uchun barcha zarur sharoitlarni yaratdi. SHu munosabat bilan I.A.Karimov quyidagilarni ta'kidladi: «Biz mamlakatimiz iqtisodiy jixatdan rivojlangan bozor tizimiga ega bo'lgan demokratik davlat haqidagi xozirgi zamon tushunchalariga moe kelgan taqdirdagina jahon xamjamiyatiga kirishimiz mumkinligiga asoslanaman. Ayni cho'fda mamlakat jahon xamjamiyati bilan hamkorlik o'rnatgan taqdirdagina, ya'ni xalqaro mexnat taksimotida uzining munosib o'rnini topgandagina uni zamonaviylashtirish mumkin bo'ladi»<sup>2</sup>.

<sup>2</sup> I.A.Karimov Uzbekiston XXI asr busagasida: xavfeizlikka taxdid, barkarorlik shartlari va

SHu munosabat bilan 1991 yilda O`zbekiston Respublikasining «Tashqi iqtisodiy faoliyat to`risida»gi Qonuni qabul qilindi, u iqtisodiy isloxlarning dastlabki bosqichlarida ma`muriy usullardan bozor usullariga sekin asta o`tishda, shu jumladan, tashqi iqtisodiy faoliyatini tartibga solishda muxim rol` o`ynaydi.

Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyatini yanada kuchaytirish uchun O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 24 iyulda «O`zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyatini rafbatalantirish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va ximoya qilish chora-tadbirlari turrisida»gi maxsus Farmoni asosida davlat organlarining ichki bozorini kundalik extiyoj mollari bilan boyitish soxasidagi birinchi navbatdagi chora-tadbirlar belgilab berildi. Farmonda, shuningdek, qo`shimchacha kapital mablaglar jalb qilish, ilfor texnologiyalar va boshqaruv tajribalaridan foydalanish, xorijiy investorlar xuquqlarini ximoya qilishning ishonchli kafolatlarni, umuman respublikaning iqtisodiy saloxiyatidan samarali foydalanishni ta`minlash xam nazarda tutilgan edi.


Mustaqil rivojlanishning boshlangich bosqichidayok O`zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatini kuchaytirish bilan borliq bo`lgan vazifalar davlat faoliyatini ana shu soxasi institutsional tuzilishini takomillashtirish zarurligini keltirib chiqardi.

Ana shu maqsadda O`zbekiston Respublikasi Prezidenti 1992 yil 21 fevraldagi Farmoni bilan O`zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi tashqil topdi, uning asosiy vazifalari-Respublika uchun xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikning ustuvor yo`nalishlarini belgilab olish asosida davlatimizning tashqi iqtisodiy siesatini shakllantirish va am`alga oshirish; tashqi savdoni ragbatlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish; tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilari operatsiyalarini nazorat qilish; respublika iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etish va ularni samarali foydalanishdan iborat edi.

Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati tuzilishini shakllantirish zarurligi ichki extiyojlari bilan borliq bo`lib, ayni paytda jahon moliyaviy tizimga jadallik bilan integratsiyalashuv ham talab etilmokda edi. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1991 yil 7 sentyabrdagi Farmoni bilan O`zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki tashqil etildi, u bugungi kunga kelib Markaziy Osiyodagi eng yirik tijorat banki bo`lib qoldi. Bank o`z e`tiborini xorijiy kreditlarni va bevosita investitsiyalarni jalb etishga qaratmoqda. Xozirgi vaqtda mazkur bank jahon banklari, sufurtqa kompaniyalari va xalqaro moliya institutlari tomonidan berilgan kredit liniyalariga xizmat ko`rsatadi. O`zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatiga doir huquqiy xujjatlar tizimida xorijiy investitsiyalar masalasiga bevosita taalluqli bo`lgan, iqtisodiyotiga xorijiy mamlakatlarning ilfor texnologiyalari jalb qilishga va umuman jahon andozalariga erishishga xizmat qiladigan xorijiy investitsiyalar soxasidagi mavjud qonunchilik bazasini qayta qurib chiqish zarurati ob`ektiv ravishda paydo bo`ldi.

2011 yilda eksport mahsulotlari hajmi 2010 yilga nisbatan qariyb 15,4 foizga ko`paydi va 15 milliard dollardan ko`proqni tashkil etdi. Bu 2000 yilga nisbatan 4,6 barobar ziyoddir. Tashqi savdo aylanmasining ijobiy sal`dosi 4 milliard 500 million dollardan oshdi.

### O`zbekistonda tashqi savdoning dinamikasi, milliard AQSH doll. hisobida.



Tashqi savdo aylanmasi tarkibidagi bunday ijobiy o'zgarishlar mustaqillik yillarida mazkur sohaga qaratilgan e'tibor, xususan eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni har tomonlama rafbattantirish hamda import o'rnini bosadigan mahsulotlarni ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan iqtisodiy siyosat natijalari hisoblanadi. "O'zbekiston mustaqillikkacha bo'lgan davrdagi chetga xomashyo chiqaradigan va tayyor mahsulotlar, asosan iste'mol tovarlarini olib kiradigan mamlakatdan bugungi kunda tobora qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan tayyor mahsulotlarni eksport qiladigan va ko'proq ishlab chiqarishni texnik hamda texnologik modernizatsiya qilish uchun mo'ljallangan yuqori texnologiyalar asosidagi uskunalarni import qiladigan mamlakatga aylanib bormoqda.

Xorijiy xamkorlar bilan o'zaro foydali iqtisodiy xamkorlik o'rnatish va rivojlantirishga qaratilgan xarakat sifatidagi tashqi iqtisodiy faoliyatning moxiyatidan kelib chiqib, yangi qonunda mazkur faoliyatni amalga oshirishning asosiy shakllari aniqlab berildi. Bular — xalqaro iqtisodiy va moliyaviy xamkorlik; tashqi savdo faoliyati; xorijii investitsiyalarni jalb qilish; O'zbekiston tashqarisidagi investitsiya faoliyatidan iboratdir.

Qonun tashqi iqtisodiy faoliyat sub'ektlarining respublika tashqarisida o'z vakolatxonalari, filiallari va boshqa aloxida bulinmalarini ochish tartibini nazarda tutadi. SHuningdek, Donun Vazirlar Maxkamasi va davlat boshqaruvi organlarining tashqi iqtisodiy faoliyatni yulga kuyish soxasidagi asosiy vakolatlarini xam tartibga soladi. Ayni vaqtda unda davlat organlarining tashqi irisodiy faoliyatda bevosita ishtirok etishi, ya'ni ularning xalqaro xususiy- xuquqiy munosabatlarga kirishuvi nazarda tutiladi.


Ko'rinib turibdiki, O'zbekiston Respublikasining «Tashqi iqtisodiy faoliyat turrisida»gi Quonuni mamlakatimiz tashqi iqtisodiy faoliyatini yanada rivojlantirishga va uning istiqbolini mustaxkamlashga yordam beradi. SHu bilan birga yangi qonunda mamlakat tashqi iqtisodiy faoliyati shakl va usullariga kiritilgan tuzatishlar, keyingi yillarda jahon xo'jalik tizimida ro'y bergan o'zgarishlarni xar tomonlama xisobga olgan xolla iqtisodiy aloqalarning jahon andozalariga javob beradigan zurur shart-sharoitlarni o'z vaqtida ta'minlash uchun javobgar bo'lgan davlatning yuksak rol' o'ynashidan dalolat beradi.





SHunday qilib, O'zbekiston mustaqillik yillarida respublikada qabul qilingan barcha xuquqiy xujjatlar asosida mustaqil davlat sifatida faol tashqi iqtisodiy faoliyat ko'rsata boshladi, bundan maqsad jahon xo'jalik tizimiga tula kushilishdan iborat edi. Bu jarayon O'zbekistonning jahon xamjasiyati mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalari izchil rivojlanib borayotganligida ko'zga tashlanadi.

2011 yilning yanvar-dekabrida jami 40,8 mingta yangi korxonalar va tashkilotlar ro'yxatga olingan bo'lib, ularning asosiy qismi Toshkent shaxri (respublika bo'yicha ruyxatga olingan jami korxonalar va tashkilotlarning 16,5 foizi), Qashqadaryo (14,2 foizi), Farg'ona (8,5 foizi), Toshkent (8,8 foiz) va Samarqand (6,7 foiz) viloyatlariga to'g'ri keladi. Iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha yangi tashkil topgan korxonalarining 28,9 foizi qishloq xo'jaligi, 22,1 foizi savdo va umumiy ovqatlanish, 18,9 foizi sanoat soxalariga to'g'ri keladi.

2011 й

2012 й



-  Davlat mulki
-  Xususiy korxonalar mulki
-  Fermer va dehqon xo'jaliklari
-  Chet el sarmoyasi ishtirokidagi

Xisobot davrida 25,0 mingta korxonalar va tashkilotlar faoliyati tugatilgan bo'lib, ulardan 6,7 mingtasi ixtiyoriy ravishda tugatilgan.

Iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha faoliyati tugatilgan korxonalarining 32,5 foizi savdo va umumiy ovqatlanish, 22,4 foizi qishloq xo'jaligi, 14,4 foizi sanoat sohasiga to'g'ri kelgan.

O'zbekiston Respublikasining «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»gi Qonunga muvofiq xamda tashqi iqtisodiy aloqalarni anada rivojlantirish va chuqurlashtirish, tashqi savdoni erkinlashtirish, tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning mustaqilligini oshirish, marketing tizimini takomillashtirish va mamlakat tovarlarini xalqaro bozorlarga keng ko'lamda kiritish maqsadida 2002 yil 21 oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-3151-sonli farmoni qabul qilindi.

Bu farmonda Tashqi iqtisodiy aloqalar sohasida boxkaruv tizimini yanada erkinlashtirish va takomillashtirish to'g'risida quyidagi vazifalar qurib chiqildi va asosiy vazifalar etib quyidagilar belgilandi.

- tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida yagona davlat siyosati o'tkazilishini ta'minlash va uni rivojlantirish strategiyasini shakllantirishda ishtirok etish;
- milliy iqtisodiyotni raqobatbardoshligini rivojlantirish va oshirish xamda uning jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvi bo'yicha shart-sharoitlar yaratish;
- respublikaning eksport salohiyatini rivojlantirish dasturlarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish;
- mamlakat tovar ishlab chikaruvchilarning maxsulotlari tashqi bozorlarga kirib beorishi uchun qulay shart-sharoitlarni ta'minlash;
- xorijiy investitsiyalarni jalb etish sohasida davlat siyosatining ruyobga chikarilishini ta'minlash;
- tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish chora- tadbirlari kompleksini amalga oshirish;
- O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlar, xalqaro iqtisodiy va moliyaviy institutlar, boshqa xalqaro xuquq sub'ektlari bilan savdo-iqtisodiy va moliyaviy xamkorligi rivojlanishini ta'minlash.

O'zbekiston Respublikasini tashqi iqtisodiy faoliyat sub'ekti deb e'lon qiluvchi tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risidagi Qonun ayni bir paytda quyidagilar O'zbekiston Respublikasining vakolatiga taalluqligini aniq belgilab beradi:

- tashqi iqtisodiy faoliyatni tashqil etishning qonuniy asoslarini belgilash;
- tashqi iqtisodiy siyosatni, jumladan valyuta kredit siyosatini ishlab chiqish va

amalga oshirish, respublika valyuta jamʼarmasini tuplash va foydalanish;

- tashqi iqtisodiy faoliyat soxasida xalqaro shartnomalar tuzish va ularni bajarish;
- respublikaning, Oʻzbekiston xuquqiy shaxslari va fuʼarolarining manfaatlarini xorijda ximoya qilish;
- respublika xududida xorijiy sarmoyadorlar faoliyati uchun hukiy kafolatlar belgitalash;
- respublika Konstitutsiyasiga asoslangan boshqa vakolatlar.

Davlat oʻz milliy va butun jamiyat manfaatlarini muxofaza rlash maqsadida tashqi iqtisodiy faoliyatni boshakaradi, shuningdek ana shu boshqaruv jarayonida paydo boʻladigan munosabatlarning ishtirokchilarini qoʻllab - quvvatlab yoki tashqi iqtisodiy faoliyatning ayrim turlari bilan shurullanishga noqulay sharoit yaratish yuli bilan taʼsir oʻtkazadi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilariga davlat taʼsiri bevosita yoki bilvosita boʻlishi mumkin.

Bunday taʼsir tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shurullanish choʻrida vujudga keladigan munosabatlarni boshqaradigan qonunlar xamda meʼyoriy xujjatlarni qabul qilish yuli bilan oʻtkaziladi va uning maqsadi xam jamoat, xam xususiy manfaatlarini ximoya qilishdan iboratdir.

Bozor iqtisodiyotini karor toptirish yulida xuquqiy jixatdan koʻp ishlar qilindi. Respublikada xuquqiy masalalar xam izchillik bilan shakllantirilib borilmokda. Bozor munosabatlarini tsivilizatsiyalashgan shaklda joriy etishga imkon beradigan qonunlar majmui yaratilmokda. Xozirgi vaqtda iqtisodiyot soxasiga tegishli boʻlgan, iqtisodiy munosabatlarni shakllantirishning xuquqiy negizini barpo etadigan 100 ga yakin asosiy qonun xujjatlari qabul qilindi. Isloxotlarning xuquqiy negizini yaratish bir qancha muxim yoʻnalishlar boʻyicha amalga oshirildi.

Iqtisodiy isloxotlar xuquqiy negizining barpo etilishidagi vazifalardan biri Oʻzbekistonni xalqaro munosabatlarning teng huquqli subʼekti sifatida tariflovchi xuquqiy normalarni yaratishdan iborat. Tashqi iqtisodiy faoliyat toʻʻrisida, Oʻzbekiston Respublikasining etakchi xalqaro tashqilotlarga aʼzoligi toʻʻrisida, valyutani tartibga solish toʻʻrisida qabul qilingan qonunlar, asosiy xalqaro aktlar va bitimlarning Oʻzbekiston tomonidan imzolanishi mamlakatimizning tashqi aloqalarining rivojlanishi tarixida sifat jixatidan yangi saxifa ochdi.

Iqtisodiyotimizga chet el investitsiyalarini keng jalb etish, chet ellik investorlarning xuquqlari va manfaatlarini ishonchli ximoyalashning kafolatlarini taʼminlanishi boʻyicha qonun asoslari qabul qilindi.

Bu Oʻzbekistonning kelajagi uchun aloxida axamiyatga ega, CHet el investitsiyalari tashqi dunyo bilan jonli aloqa boʻlibgina kolmay, balki chuqur tarkibiy va muayyan tizimdagi oʻzgarishlarning shartli manbai xamdir. Bularsiz yangilangan jamiyatni qurish aslo mumkin emas.

Mustaqillik yillarida tashqi siyosatimizni yulga kuyishning asosiy tamoyillari ishlab chiqildi va izchil amalga oshirildi. Bu tamoyillar, avvalo, Oʻzbekistonning oʻz tashqi siyosatini teng huquqlilik va oʻʻzaro manfaatdorlik, boshqa mamlakatlarning ichki ishlariga aralashmaslik negizida qurishga intilayotganligidan kelib chikadi. Biz biron-bir davlatning taʼsir doirasiga kirmaymiz, degan qoidaga qatʼiy amal qilib kelmokdamiz va bundan buyon xam oʻz milliy-davlat manfaatlarimizga asoslanib, mafkoʻraviy qarashlardan qatʼiy nazar, dunyoning barcha mamlakatlari bilan oʻʻzaro munosabatlarni mustaqil belgilayverishga axd qilganmiz.

Xalqaro Valyuta Fondi, Jahon banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi ishtirokida ishlab chiqilgan xamda, jumladan, respublikada kichik oʻrta biznesni rivojlantirishga koʻmaklashuvchi bir qancha loyixalar, shuningdek iqtisodiyotning eng manfaatli soxalaridagi loyixalarni moliyavii jixatdan taʼminlash dasturi amalga oshirilmokda. Respublikamiz Tashqi iqtisodiy faoliyat kompleksining 2000 yil yarim yilligiga bagashlab utkazilgan majlisda xam kichik va oʻrta korxonalar eksportini rivojlantirishda yukoridagi omillar taʼsiri taʼkidlab oʻtildi. YAʼni, kichik va oʻrta korxonalar tomonidan eksport qilinayotgan maxsulotlarning sifati, tovar turlarini jahon bozori talablariga javob bera olmasligi, transport xarajatlarining yuk, oriligi natijasida tovarlarning tannarxi yukori boʻlishi-ularni raqobatlasha olish qobiliyatining pasayishiga va

bevosita eksport imkoniyatlari kamayishiga sabab bo`moqda.

Mamlakatimiz eksport saloxiyatini rivojlantirish va mustaxkamlash, iqtisodiyotni jahon iqtisodiyoti tizimiga keng ko`lamda integratsiyalashuvini ta`minlash, iqtisodiyotda raqobatbardosh va eksportbop tayyor maxsulotlarning turi va salmoqini ko`paytirish, jahon bozorida mustaxkam o`rin olishning eng muxim shartidir.

Ilfor mamlakatlar tajribasi shuni ko`rsatadiki, xar kandy mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda kichik va o`rta korxonalar muxim rol uynaydi. CHunonchi, kichik va o`rta korxonalarning YAIMdagi ulushi Buyuk Britaniyada 50-53 foiz, AQSHda 50-52 foizni, Evropa xamjamiyati mamlakatlarida 63-67 foizni tashqil qiladi va bu o`z navbatida mamlakat iqtisodiy rivojlanishida xamda eksportda xam o`z o`rniga ega.

Bu esa, mamlakatimizda iqtisodiy isloxotlarni muvaffikiyatli amalga oshirish iqtisodiy yuksalish va eksport importlarini yanada takomillashtirishda muxim axamiyatga egaligini ko`rsatadi.

Xozirgi kunda respublika tashqi iqtisodiy faoliyat kompleksida kichik va o`rta sub`ektlar eksporti xajmini oshirish, uning samaradorlik darajasini ko`tarish uchun qator omillardan izchilrok foydalanish lozim. SHubxasiz, bu omillar asosini eng birinchi galda eksportchi sub`ektlar joylashuvi, ixtisoslashuv darajasi, ularning transport, moliyaviy va boshqa infratuzilmalar bilan uyfunligi, ishlab chikarilayotgan tovar va xizmatlarning raqobatbardoshlik darajasi va boshqalar tashqil qiladi.

SHu o`rinda ta`kidlash lozimki, maxalliy resurslarni ishlab chiqarishga jalb etishda kichik va o`rta biznes tuzilmalarining imkoniyatlari katta. Bu imkoniyatlarga quyidagi omillar ta`sir etmokka:

- maxalliy xom - ashyo va resurslarning ko`lamini kichik va o`rta biznes uchun qulayligi;

- xususiy va maxalliy investitsiyalarni jalb qilishda kichik va o`rta biznes tuzilmalari imkoniyatlarining kengligi;

- Iqtisodiy faoliyatni qo`llab-quvvatlash bilan shurullanuvchi xalqaro jamfarmalar xamda xorijiy tuzilmalarning kichik va o`rta tadbirkorlikni moliyalashtirishga moyilligining yuqoriligi;

- kichik va o`rta tadbirkorlikni bozor o`zgarishlariga birmuncha xozirjavobligi, qisqa muddatda moslashuvchanligi yukoriligi va boshqalar.

Ko`rinib, turibdiki, bugungi iqtisodiy rivojlanish darajasida kichik va o`rta biznesni rivojlantirish asosida mamlakatning eksport saloxiyatini barkaror ko`paytirishga erishish mumkin.

Mamlakatda kichik va o`rta biznesning tashqi iqtisodiy faoliyatda samarali ishtirokini keng ko`lamda yulga kuyish imkoniyatlari:

- eksportga moyil ustuvor soxalarga kengrok e`tibor karatish va bu soxalardagi ishlab chiqarish sub`ektlarining moliyaviy barkarorligini ta`minlashda ko`mak berish;

- yangi texnologiyalarni ishlab chiqarishga yunaltirish, kichik biznes korxonalari va tuzilmalarining bu boradagi faoliyatlarini qullab — kuvvatlash;

- kichik biznes sub`ektlarining zamonaviy axborot texnologiyalari orkali xo`jalik faoliyati uchun zarur bo`lgan axborotlarni olish yoki yullash tizimi bilan ta`minlanganlik darajasini oshirish kabilar bilan chambarchas bofliq.

Bunday imkoniyatlarni yaratilishi istiqbolda ichki bozorning xam tuyinish darajasining ortishiga va bu tuzilma sub`ektlari o`rtasida o`zaro raqobat muxitining ravnak topishiga olib keladi. ishlab chiqarish strukturasi sifati o`zgarishlariga erishiladi.

## II BOB. NAMANGAN VILOYATIDA TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNING RIVOJLANISHI

### 2.1 Namangan viloyatining iqtisodiy ko`rsatkichlari va tashqi iqtisodiy faoliyat uchun imkoniyatlari

Namangan viloyati Farfona vodiysi shimoli -Farbida, CHotqol va Qurama toʻf tizmalari yaqinida joylashgan. Hududning katta qismi suʻroriladigan dexkonchilikka mos.

Namangan viloyatidan Buyuk Ipak yuli oʻtgan. Viloyatning qulay iklim sharoiti soglomlashtirish muassasalari tarmogini kengaytirish, tarixiy obidalar va ziyoratgoxlar mavjudligi turizmni rivojlantirishga katta imkoniyat yaratadi. ekologik toza kdshlok xo`jalik maxsulotlari etishtirish va qayta ishlash borasida xam viloyat katta salohiyatga ega. Nodir foydali kazilma konlari ochilganligi, axoli gavjum ekanligi (zichligi - 1 kv. km. 300 kishi) xam mintakasining katta investitsiya imkoniyatlari mavjudligidan dalolat beradi. Viloyatning investitsiyalarni joylashtirish imkoniyatlari katta. Namangan shaxridagi tozalash inshootlarini rekonstruksiya qilish ana shunday loyixalardan biridir.

Viloyatda xalk banki bulimlari, shuningdek, O`zbekistondagi eng katta aktsiyadorlik tijorat banklarining: «Uzuyjamfarma-bank», «Paxtabank», O`zbekiston Respublikasi TIF Milliy banki, «Tadbirkorbank», «Turonbank», «Sanoatkurilishbank», «Falla - bank», «Savdogarbank», «Asakabank», «Aloqabank» «Ipak yuli» bankining filiallari ishlab turibdi.

2011 yil yanvar-dekabrida viloyatda jami 2593 ta yangi korxonalar va tashkilotlar ro`yxatga olingan. Ularning asosiy qismi Namangan shahri (viloyat bo`yicha ruyxatga olingan jami korxonalar va tashkilotlarning 33,2 foizi), CHust (8,9 foiz), Pop (8,3 foiz) va Namangan (7,0 foiz) tumanlariga to`fri keladi.

2011 yilga kelib, Namangan viloyatida 8 ta suʻfurtqa kompaniyasi: «Uzbekinvest» eksport-import kreditlash Milliy kompaniyasining shu`ba korxonasi, «Madad» suʻfurtqa kompaniyasining Namangan filiali, «Yulovchi» avtotransport suʻfurtqa kompaniyasining Namangan filiali, «Ark» suʻfurtqa guruxi Agentligi, «Uzbekbirlashuv» xo`jalik xisobidagi suʻfurtqa bulimi, «Asko Ol Bgin Vodiy» suʻfurtqa kompaniyasi, «Mir Olimxon» ko`p Tormoqli xususiy firmasi, «Vikenna» aktsiyadorlik suʻfurtqa kompaniyasi faoliyat ko`rsatmokda.

Viloyatda «DAVINCOM» Davlat investitsiya firmasining filiali ishlab turibdi. U xususiylashtirilayotgan korxonalarining davlat ulushini sotish bilan shuʻullanadi.

Namangan viloyati o`tkazilayotgan isloxotlarning samaradorligi bilan respublikamizning boshqa xududlaridan ajralib turadi. CHunonchi, 2012 yilning 1 yanvar holatiga ro`yxatga olingan jami kichik tadbirkorlik (biznes) sub`ektlarining soni 28,7 mingtani tashkil qildi. 2011 yilning yanvar-dekabr oylarida yalpi xududiy mahsulotning 78,7 foizi kichik biznes sub`ektlari tomonidan (2010 yil yanvar-dekabrida 76,0 foiz), shu jumladan 38,6 foizi kichik korxonalar va mikrofirmalar va 17,0 foizi xususiy tadbirkorlar tomonidan ishlab chiqarildi.

Iqtisodiyotning kichik sektori iqtisodiyotdagi jami bandlarning 79,1 foiz (666 ming kishi) bandligini ta`minladi. Band bo`lganlarning katta qismi 78,6 foizi (523,4 ming kishi) xususiy sektor hamda 21,4 foizi (142,6 ming kishi) kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to`fri keladi.

Kichik biznes sub`ektlari tomonidan sanoat mahsuloti ishlab chiqarish 134,2 foizga o`sdi va 377,4 mlrd. so`mni (viloyat sanoat ishlab chiqarishining 35,7 foizi), qishloq xo`jalik mahsuloti 107,2 foizga o`sib, 1416,0 mlrd. so`mni (qishloq xo`jalig yalpi mahsulotining 99,1 foizi) tashkil qildi.

Viloyatning tashqi savdo aylanmasi 2011 yilning yanvar-dekabrida 205751 ming. AQSH dollarini yoki o`tgan yilning shu davriga nisbatan 42,8 foizni, shu jumladan eksport 82757,3 ming. AQSH dollarini, import 122993,7 ming. AQSH dollarini tashkil qildi.



**Viloyatning tashqi savdo aylanmasi quyidagi ko`rsatkichlar bilan  
ifodalanadi: 1-jadval**

(ming. AQSH dollari)

	YAnvar-dekabr		2010 yil yanvar-dekabrga nisbatan foizda
	2010 y.	2011 y.	
<b>Tashqi savdo aylanmasi</b>	<b>481006,2</b>	<b>205750,9</b>	<b>42,8</b>
shu jumladan:			
MDX mamlakatlari	319745,4	78314,8	24,5
boshqa xorij mamlakatlari	161260,8	127436,1	79,0
<b>Eksport</b>	<b>335404,3</b>	<b>82757,2</b>	<b>24,7</b>
shu jumladan:			
MDX mamlakatlari	238717,7	39180,2	16,4
boshqa xorij mamlakatlari	96686,6	43577,0	45,1
<b>Import</b>	<b>145601,9</b>	<b>122993,7</b>	<b>84,5</b>
shu jumladan:			
MDX mamlakatlari	81027,7	39134,6	48,3
boshqa xorij mamlakatlari	64574,2	83859,1	129,9

**Manba: Viloyat iqtisodiyot bosh boshqarmasi va statistika boshqarmasi ma`lumotlari asosida tayorlandi.**

Tashqi savdo aylanmasida MDX va boshqa xorij mamlakatlarining ulushi quyidagicha ifodalanadi:

**Eksport va import xajmi va tarkibidagi o`zgarishlar  
dinamikasi 2-jadval**

	Eksport va importning umumiy xajmidagi ulushi, foiz xisobida		Xajmidagi o`zgarish, foiz xisobida
	2010 y	2011 y	
<b>Eksport tarkibi:</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>24,7</b>
- paxta tolasi	16,8	17,4	25,5

	Eksport va importning umumiy hajmidagi ulushi, foiz xisobida		Xajmidagi o`zgarish, foiz xisobida
	2010 y	2011 y	2010 yil yanvar-dekabrga nisbatan foizda
- oziq-ovqat	69,4	17,0	6,0
- kimyo maxsulotlari, plastmassa va ulardan yasalgan buyumlar	0,2	0,8	91,8
- rangli va qora metallar	0,02	0,3	411,7
- mashina va uskunalar	0,1	0,7	232,6
- energiya manbalari	0,2	0,2	32,2
- xizmatlar	1,8	11,0	146,7
- boshqalar	11,3	52,8	114,9
<b>Import tarkibi:</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>84,5</b>
- oziq-ovqat	35,1	19,2	46,2
- kimyo maxsulotlari, plastmassa va ulardan yasalgan buyumlar	17,3	24,5	119,8
- rangli va qora metallar	6,0	7,6	106,6
- mashina va uskunalar	25,9	38,6	125,8
- energiya manbalari	0,1	0,2	156,8
- xizmatlar	0,1	1,6	2271,9
- boshqalar	15,6	8,3	45,2

**Manba: Viloyat iqtisodiyot bosh boshqarmasi va statistika boshqarmasi ma`lumotlari asosida tayorlandi.**

**Tashqi savdo aylanmasining qit`alar bo`yicha tarkibi**

**Ошибка! Ошибка связи.**

Sanoatda asosiy e'tibor importning o'rnini bosadigan yo'nalishga (maxalliyashtirish yuzasidan qabul qilingan dasturga muvofik maxalliy xom ashyodan foydalanish), shuningdek, eksportga muljallangan maxsulot ishlab chiqarishga qaratilgan. Engil va ozik -ovkat sanoati, kishlok xo'jalik maxsulotini qayta ishlash, mashinasozlik, kimyo va qurilish sanoatini rivojlantirish-viloyatdagi asosiy ustuvor yo'nalishlardir.

Bugungi kunda viloyatimizda iqtisodiy munosabatlarning bozor qonuniyatlari asosida rivojlantirishda barqaror tashqi iqtisodiy faoliyatga erishish makroiqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim shartidir. Samarali tashqi iqtisodiy faoliyatga erishish provardida bir qator amaliy natijalarning shakllanishida katta rol o'ynaydi. CHunonchi,

- valyuta tushumlari hajmi, shunga ko'ra makroko'lamda valyuta zahiralari hajmi ortadi;
- milliy (xususiy) investitsiya qatlamlarining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;
- jahon (yoxud mintaqa) siyosiy doiralarida mamlakatning, ijtimoiy-siyosiy mavqei belgilashdagi muhim omil sifatida baholanadi;
- Milliy iqtisodiyotning jahon iqtisodiyotiga integratsiyasin kuchaytiradi, ixtisoslashuv jarayonlarini takomillashtiradi va boshqalar.

Masalaning bunday amaliy natijalarini ko'zda to'tgan holda ta'kidlash mumkinki, bugungi kunda Namangan viloyatida tashqi iqtisodiy faoliyatni rafbattantirish hamda eksportbop mahsulot ishlab chiqarishni rafbattantirish, ayniqsa viloyat hududiy tuzilmalarining (tumanlar) amaliy ishtirokini kuchaytirish hamda samarali tashqi iqtisodiy faoliyatga erishish maqsadida import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish va importni oqilona tashqil etish yuzasidan amaliy ishlarni olib borish lozim. Bu bordda mahalliy xom—ashyo va resurlarga asoslanish bilan bo'liq davlat ustuvor siyosatini amalga oshirish, tashqi savdo va to'lov balanslarini takomillashtirish va viloyatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni tashqi bozorga chiqarish tizimi va tashqi savdo infratuzilmasining samaradorligini oshirish bo'yicha dasturlar majmuini ishlab chiqarish talab etiladi.

Tashqi savdo milliy ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirishning muhim omil ekanligi hammaga ma'lum. CHunki tashqi savdo mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotini ko'rsatib beruvchi, uning jahon iqtisodiy hamjamiyatidagi o'rnini belgilab beruvchi makroiqtisodiy «barometr»dir. Tashqi savdo balansining buzilishi mamlakatda eksportni importga nisbatan pastroq o'sayotganidan dalolat beradi.

**2011 yil yanvar-dekabrida tashqi savdo aylanmasi**

**3-jadval**  
(ming. AQSH dollari)

	Jami	shu jumladan:	
		eksport	import
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>205751,0</b>	<b>82757,3</b>	<b>122993,7</b>
Namangan sh.	125611,0	38899,2	86711,8
Mingbuloq	554,1	0,4	553,7
Kosonsoy	2738,3	1778,3	960,0
Namangan	24662,9	16040,2	8622,7
Norin	1198,0	662,9	535,1
Pop	12795,5	8077,7	4717,8

To`ra qo`rfon	1107,6	188,3	919,3
Uychi	4883,6	2181,0	2702,6
Uchqo`rfon	2113,2	270,0	1843,2
CHortoq	2025,1	585,8	1439,3
CHust	13984,0	8279,8	5704,2
YAngiqo`rfon	7302,9	4121,3	3181,6

**Manba: Viloyat iqtisodiyot bosh boshqarmasi va statistika boshqarmasi ma`lumotlari asosida tayorlandi.**

**MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi**

4-jadval  
(ming. AQSH dollarida)

	Eksport		Import	
	2010 y.	2011 y.	2010 y.	2011 y.
<b>Jami</b>	<b>238909,9</b>	<b>39180,8</b>	<b>81108,3</b>	<b>39524,1</b>
Belorussiya	2280,9	1294,7	532,6	559,9
Oozofiston	68829,4	2806,2	43936,7	11499,9
Oirfiston	1002,6	493,6	72,2	278,0
Moldoviva	81,7	640,4	49,3	1,1
Rossiva	154667,8	32529,4	28382,6	20679,6
Toiikiston	14,3	9,1	144,9	-
Turkmaniston	7508,1	124,3	521,9	333,4
Ukraina	3209,2	961,2	7387,6	5777,1
Boshqaalar	1315,9	321,9	80,5	395,1

**Manba: Viloyat iqtisodiyot bosh boshqarmasi va statistika boshqarmasi ma`lumotlari asosida tayorlandi.**

**Boshqa xorij mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi**

5-jadval  
(ming. AQSH dollarida)

	Eksport		Import	
	yanvar-dekabr		yanvar-dekabr	
	2010 y.	2011 y.	2010 y.	2011 y.
<b>Jami</b>	96494,4	43576,1	64376,1	83469,6
Afroniston	7599,7	7408,9	-	-
Buyuk Britaniya	1409,9	105,2	581,7	247,4

(ming. AQSH dollarida)

	Eksport		Import	
	yanvar-dekabr		yanvar-dekabr	
	2010 y.	2011 y.	2010 y.	2011 y.
V'etnam	945,2	1084,1	0,8	41,4
Olmoniya	241,8	629,0	5485,0	4129,5
Eron	10458,2	815,9	793,0	306,9
Xitoy	39045,3	13308,2	10225,8	18263,2
Koreya	6142,4	4409,9	21880,6	29989,9
Niderlandiya	3334,3	2404,0	2099,2	2963,6
Pol'sha	869,0	1,2	270,3	663,7
Turkiya	9797,4	7060,9	8766,4	9505,9
Frantsiya	1,3	10,4	2514,9	1918,4
SHveysariya	-	0,8	3816,1	3960,1
SHvetsiya	0,4	0,1	941,8	938,6
Boshqalar	16649,5	6337,5	7000,5	10541

**Manba: Viloyat iqtisodiyot bosh boshqarmasi va statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tayorlandi.**

**CHet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar tashqi savdo**

**aylanmasi**

6-jadval

(ming. AQSH dollarida)

	Eksport		Import	
	2011 yil yanvar-dekabr	2010 yil yanvar-dekabriga nisbatan foizda	2011 yil yanvar-dekabr	2010 yil yanvar-dekabriga nisbatan foizda
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>48584,0</b>	<b>84,9</b>	<b>60539,9</b>	<b>125,5</b>
Namangan sh.	22590,8	98,8	50679,9	127,1

Mingbuloq	-	-	-	-
Kosonsoy	422	77,6	567,2	163,1
Namangan	14539,7	137,0	3767,9	184,4
Norin	-	-	-	-
Pop	5771	85,9	1080,9	87,9
To`raqo`rƣon	47,9	32,3	39,8	-
Uychi	669,0	141,1	268	223,7
Uchqo`rƣon	-	-	11,2	-
CHortoq	85,1	-	50,3	66,2
CHust	1064,5	51,7	900,7	99,7
YAngiqo`rƣon	3394	-	3174	87,0

**Manba: Viloyat iqtisodiyot bosh boshqarmasi va statistika boshqarmasi ma`lumotlari asosida tayorlandi.**

So`nggi yillarda Namangan viloyatida tashqi savdo faoliyatini yanada kengaytirish, viloyat eksport salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan ishlar amalga oshirilishi viloyatda tashqi savdo balansida ijobiy sal`doni ta`minlash va muddati uzaytirilgan tashqi qarzdorlikning kamaytirish imkonini berdi.

Viloyatimiz tashqi iqtisodiy faoliyatining eng muhim jihatlaridan biri-bu mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo`yicha olib borilayotgan ishlar hisoblanadi. Namangan viloyatida investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun keng ko`lamli soliq imtiyozlari tizimidan foydalanilmoqda va shuningdek, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatini rafbirlantiruvchi bir qator chora-tadbirlar ishlab chiqilgan.

Viloyatimizni tashqi iqtisodiy faoliyati, yuqorida aytib o`tganimizdek, eksport, import operatsiyalari, investitsiyalar harakati, ishchi kuchi migratsiyasi, ijtimoiy-madaniy aloqalar va ular bilan bo`liq bo`lgan munosabatlarni qamrab olmoqda.

Keyingi yillarda Namangan viloyatining tashqi iqtisodiy faoliyatda viloyatning eksport salohiyatini rivojlantirish dasto`rini amalga oshirilishi uzoq xorij mamlakatlarida katta qiziqish uyƣotmoqda. Viloyatda investitsion faollik ortib borayotganligini ham aytib o`tish kerak. Xorijiy sarmoyani keng jalb qilish asosan tarkibiy o`zgarishlarni yanada chuqurlashtirishga, mustahkam moddiy-texnika bazasini yaratishga, viloyatning makroiqtisodiy barqarorligini va iqtisodiy rivojlanishini ta`minlashga qaratilgan.

Viloyatda 2011 yilning yanvar-dekabr oylarida qo`shma korxonalarining shahar va tumanlar bo`yicha tashqi savdo aylanmasi Namangan, Pop va YAngiqo`rƣon tumanlarida yuqori darajasida bo`lsa, Mingbuloq, Norin, Uychi, Uchqo`rƣon, va CHust tumanlarida bu ko`rsatkich past darajada ekanligi ko`zga tashlanadi.

Bizningcha, viloyat iqtisodiyot tizimida ro'y berayotgan murakkab vaziyatlarni hisobga olgan holda viloyat iqtisodiyoti o'sishini ta'minlashga va aholi turmush sharoitini yuksaltirishga qaratilgan tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada takomillashtirish zarur. Tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida belgilangan strategik vazifalarni amalga oshirish uchun: viloyat iqtisodiyotiga xoijiy investitsiyalar jalb etilishini yanada jadallashtirish; an'anaviy eksport mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirish va ular eksport nomenklaturasini kengaytirib borish; qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan eksport ko'paytirish talab etilmoqda.

Viloyatda tashqi savdo infratuzilmasini takomillashtirish va viloyat eksport salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiy tadbirlar amalga oshirilayotgan bo'lsada, eksport tarkibida hamon xom ashyo mahsulotlari usutnlik maqomini egallab kelmoqda. Boy tabiiy va qulay iqlim sharoitlariga ega bo'lgan Namangan viloyati hozirga qadar an'anaviy ravishda dunyoning ko'pchilik mamlakatlari bozorlariga qishloq xo'jalikgi va unga tutash bo'lgan sanoat tarmoqlari mahsulotlarini etkazib berish bilan shu'ullanadi.

## **2.2 Mustaqillik yillarida Namangan viloyatida tashqi iqtisodiy faoliyatning rivojlanishi (iqtisodiy- geografik tahlil)**

Tashqi iqtisodiy faoliyat mamlakatning eksport, import operatsiyalarini, kapitallar, kreditlar, investitsiyalar harakatini, ishchi kuchi migratsiyasini, ijtimoiy-madaniy aloqalarni va ular bilan bo'liq bo'lgan munosabatlarni nazarda tutadi. Bu munosabatlarda tovarlar (ishlar, xizmatlar) eksport va importi asosiy o'rinni egallab, qo'shilgan qiymat yaratishda salmoqli rol o'ynaydi. SHu sababli, mamlakatimiz, qolaversa, viloyatimiz eksport salohiyatini rivojlantirish va mustahkamlash, iqtisodiyotimizning jahon iqtisodiy tizimiga keng qo'lmada integratsiyalashuvini ta'minlash nafaqat bugungi kunning, balki ertangi kelajagimizning ham asosiy vazifalardan biri bo'lib qolaveradi.

Uzoq yillar davomida tashqi iqtisodiy faoliyat tizimini Moskva ixtiyorida bo'lishi Namangan viloyati iqtisodiyotida ham o'z aksini topdi. Namangan viloyati xorijiy mamlakatlarga paxta tolasi va pilla chiqargan. Sobiq ittifoqdosh respublikalar, ayniqsa, Rossiya, Ukraina va Belorusiyaga paxta tolasi, quruq va ho'l mevalar, sabzavot va poliz mahsulotlari jo'natilib, ulardan oziq - ovqat, keng iste'mollar mollarini olingan.

O'zbekistonni mustaqil davlat sifatida jahon hamjamiyati tarkibiga kirishi xorijiy mamlakatlari bilan mustaqil tashqi iqtisodiy faoliyat olib borish uchun keng imkoniyatlar ochdi. 1992 yildan boshlab O'zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish sohasida katta tadbirlar amalga oshirildi. Mamlakatda tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi, tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki va bu bankning Namangan viloyati bo'limi tuzildi. Respublika Hukumatida, vazirliklar va idoralar tatrkbida tashqi iqtisodiy faoliyatlar bilan bo'liq vazifalarni bajaruvchi bo'linmalar yuzaga keldi.

Namangan viloyatida tashqi iqtisodiy aloqalar mintaqaviy boshqarmasining tashqil etilishi esa iqtisodiy faollikning kengayishiga ijobiy ta'sir etdi. SHuningdek, korxonalar, tashqilotlar, birlashmalar, firmalar va assotsiatsiyalarning jahon bozoriga o'zi mustaqil ravishda chiqish doirasi kengayib bormoqda.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish eng avvalo, tashqi iqtisodiy aloqalarni erkinlashtirishni, bu esa, valyuta munosabatlarini takomillashtirishni taqozo etadi. SHuni ta'kiddash joizki, mamlakatimizda valyuta munosabatlarini takomillashtirish borasida ancha sezilarli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, valyuta tushumlarini majburiy sotishda undiriladigan 5 foizli yirim to'lovlari bekor qilindi, eksport-import operatsiyalarini (ishlar, xizmatlar) amalga oshirishda birjadan tashqi erkin talab va taklifdan kelib chiquvchi valyuta kursiga o'tildi, jismoniy shaxslarning erkin almashinadigan valyutalarni erkin xarid qilish miqdorlari sezilarli darajada oshirildi. Bojxona hududi orqali olib kiriladigan va olib chiqiladigan xorijiy valyutalardan bojxona yifimari undirish bekor qilindi, shuningdek, valyuta kurslarining bixillashtirilishiga qaratilgan boshqa bir qator chora-tadbirlar shular jumlasidandir.

Bunda chora-tadbirlar zamirida ilfor texnologiyalarning jalb qilinishi va o'zlashtirilishini,

ishlab chiqarish kuchlarining modernizatsiyalashuvini, ijtimoiy infratuzilma-ning samarali mexanizmo` joriy qilinishini, erkin muomaladagi valyutaning kirib kelishini ta`minlash kabi ustuvor maqsadlarga erishishga intilish yotadi.

Xorijiy valyuta zahiralari ko`paytirish va undan oqilona foydalanish boshqa omillar bilan bir qatorda, viloyatimizdagi eksport-import faoliyatining qanday tashqil etilganligiga ham bo`liqdir. SHu jihatdan olib qaraganda, viloyatning eksport imkoniyatlarini tahlil qilish va uning natijalariga ko`ra ilmiy xulosa va takliflar ishlab chiqish alohida ahamiyat kasb etishi shubhasizdir.

Respublikamizning, qolaversa, viloyatimizning jahon bozorida sobiq Ittifoq tizimidan meros bo`lib qolgan hom ashyo va tabiiy resurslar etkazib beruvchi sifatida to`tgan o`rni hozirgi kun talablaridan kelib chiquvchi milliy manfaatlar ustuvorligiga javob bera olmaydi,

Modomiki, Namangan viloyati xom ashyo va tabiiy resurslar etkazib beruvchi viloyatligicha qolar ekan, strategik nuqtai nazardan tashqi bozorga qaramlikka mahkum bo`lishi tabiiy. eksportga faqat xom ashyo va tabiiy resurslar chiqarilsa, bunday sharoitda milliy xo`jalikning zaifligi tobora ortadi. Nega desangiz, uning samaradorligi asosan jahon hom ashyo bozorlarining kon`yukturasiga bo`liq bo`lib qoldi. O`z navbatida, bu bozorning ahvoli ham unchalik barqaror emas.

Eksportning tovar tarkibi haqida so`z yuritilganda shuni aytish o`rinliki, Namangan viloyati iqtisodiy islohotlar boshida hom ashyo (asosan paxta tolasi) eksport qilgan bo`lsa, endi tayyor mahsulotlarni eksport qilishni ko`paytirmoqda.

Tashqi savdo munosabatlarining iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan yana bir muhim element-eksport tarkibini takomillashtirishdan iborat.

Mustaqillik yillarida viloyatimiz eksport geografiyasida juda katta o`zgarishlar yuz berdi. Bugungi kunda Namangan viloyati jahonning 50 dan ziyod davlatlari bilan savdo - iqtisodiy aloqalarini o`rnatgan.

**Viloyatning tashqi savdo aylanmasida katta ulushga ega bo`lgan davlatlar bilan tovar aylanmasi**

**7-jadval**

	Viloyatning tovar aylanmasida ulushi, foiz xisobida	2010 yil yanvar-dekabrga nisbatan foizda
Afʼoniston		
	3,60	97,5
Belorussiya	0,90	65,9
Eron	0,55	10,0
Kozofiston	6,95	12,7
Xitoy	15,34	64,1
Rossiya	25,86	29,1
Turkiya	8,05	89,2

	Viloyatning tovar aylanmasida ulushi, foiz xisobida	2010 yil yanvar-dekabr nisbatan foizda
Ukraina	3,28	63,6
Olmoniya	2,31	83,1
Niderland davlati	2,61	98,8
SHveysariya	1,93	103,8
Koreya	16,72	122,8
Qirg'iziston	0,37	71,8

**Manba: Viloyat iqtisodiyot bosh boshqarmasi va statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tayorlandi.**

Xisobot davrida viloyat jaxonning 78 mamlakati bilan tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirdi va 36 mamlakat bilan ijobiy sal'doga ega bo'ldi. 2011 yilning yanvar-dekabrda MDX va boshqa xorij davlatlari bilan amalga oshirilgan tashqi savdo tarkibi quyidagicha ifodalanadi:

### **Ошибка! Ошибка связи.**

Namangan viloyati eksportida xorijiy davlatlar ulushining o'sishi sabablaridan yana biri, bu jahon bozori narxlari bilan MDH bozorlaridagi narxlar o'rtasidagi farqlarning mavjudligidir. MDH bozorlari taklif etayotgan narx jahon bozori narhlariga mos tushmasligi tovar eksportining uzoq xorijiy davlatlar bozoriga ko'chib o'tishga sabab bo'lmoqda.

Yuqorida ko'rsatilgan ijobiy o'zgarishlarga qaramay, eksport salohiyatida ham ayrim muammolar mavjud, albatta. Xususan, eksportning rivojlanishiga salbiy ta'sir etuvchi omillardan biri, bu eksport nomenklaturam tarkibining torligi va deyarli o'zgarmasligi sharoitida ayrim xom ashyo eksport mahsulotlarining hajmini oshira borishdir.

MDH mamlakatlari va boshqa xalqaro huquq sub'ektlari bilan savdo—iqtisodiy va moliyaviy hamkorliklarini yanada kuchaytirish uchun

➤ kichik va o'rta biznes sub'ektlari tashqi iqtisodiy faoliyati rivojlanishiga madad berish;

➤ xalqaro transport kommunikatsiyalarini rivojlantirish orqali eksport tovarlarining transportda tashish xarajatlarini kamaytirish zarur.

Fikrimizcha, tashqi iqtisodiy faoliyatni takomillashtirish va yanada rivojlantirishga tusqinlik qilib kelayotgan bunday muammolarning o'z vaqtida bartaraf etilishi Namangan viloyatining mamlakatimizning jahon iqtisodiy hamjamiyatida samarali ishtirok etishiga qo'shayotgan hissasini oshirish imkonini beradi.

Namangan viloyati eksport salohiyatini rivojlantirish uchun faol eksport strategiyasiga o'tishi, uning tarmoq va geografik tarkibini takomillashtirish, valyuta munosabatlarini erkinlashtirish, eksport mahsulotlari nomenklaturasini kengaytirish va raqobatbardoshligini oshirish, xalqaro savdo- iqtisodiy hamkorlikning zamon talablariga javob beradigan usul va uslubiyatlaridan samarali foydalanishi maqsadga muvofiqdir.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun esa, quyidagi omillarni va chora—tadbirlarni izchillik bilan rivojlantirish va amalga oshirish lozim:

➤ mahalliy xom ashyodan foydalanib o'z mahsulotlarini chetga eksport qilayotgan ishlab chiqaruvchi sub`ektlarning xorijiy valyutadagi tushumlardan 50 foizni majburiy sotishdan ozod qilish yoki eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqaruvchi sub`ektlarning mahalliy xom ashyodan foydalanish darajasiga qarab (qancha foizdaligi) xorijiy valyutadagi tushumning 50 foizini shunga mos ravishda kamaytirish yoxud mo'ljaldagi (rejadagi) eksport hajmidan ortiqcha eksport qilish natijasida olingan chet el valyutasidagi tushumlarni umuman majburiy sotuvga tortmaslik;

➤ import qiluvchi ishlab chiqarish sub`ektlarining esa xorijiy valyutadagi tushumlari majburiy sotuvini yoki ishlab chiqarilayotgan mahsulot xom ashyosining asosiy qismini import qiluvchi ishlab chiqaruvchilar uchun import bojlari to'lovlarini shunga moe ravishda oshirish yohud importning belgilangan hajmidan ortiqchasini to'liqligicha majburiy sotuvini ta'minlash;

➤ inson omilini rivojlantirishga asosiy e'tiborni qaratib, ishchi-xizmatchilar bilimini va kasb malakalarini takomillashtirish, bunda zamonaviy taxnika va taxnologiyalardan kengroq foydalanish;

➤ mahalliy xom ashyodan foydalangan holda eksport nomenklaturasini yangi mahsulot bilan kengaytirish va boyitish maqsadida ishlab chiqaruvchi sub`ektlar (korxonalar, tashqilotlar, olimlar, tadqiqotchilar va h.k.) o'rtasida «nou —xou» mukofotiga o'xshagan salmoqli so'mmada ra'batlantiruvchi tadbirlarni kengroq joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Har bir korxonalar, tashqilot va muassasalar chet elda xizmat safarida bo'lib, qaytgan o'z mutaxassislari yoki ishchi-xodimlari o'quv-malakasini hamda tajribasini va olgan taassurotlarini mazkur korxonalar va tashqilot jamoasi bilan o'rtoqlashishini, tajribalarini amaliyotga joriy etishini ta'minlashi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish omilidir.

Viloyat eksport salohiyatini o'stirish uchun albatta, unga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmani rivojlantirish lozim. Buning uchun esa, fikrimizcha, mahsulot eksport qiluvchilarga xizmat ko'rsatadigan, ular faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi va tashqi savdo ishlarini muvofiqlashtirishga yordam beruvchi Milliy markaz va uning hududiy bo'limlarini tashqil qilish zarur.

Markazning asosiy vazifalaridan biri qilib, dunyo bozori bo'yicha chuqur marketing tadqiqotlari o'tkazish, alohida ishlab chiqaruvchilar uchun qanday mahsulot turlarini ishlab chiqarish bo'yicha takliflar, tavsiyalar berish va turli mamlakatlar bozorlaridagi mahsulotlarning sotilish hajmi, ular narxlari va yo'nalishlari to'rtisida doimiy ma'lumotlar to'plamini tashqil etish kabi vazifalar belgilanishi maqsadga muvofiqdir.

YUqorida bildirilgan fikr-mulohazalar, keltirilgan ma'lumotlar va tahlillardan ko'rinib turibdiki, davlatning asosiy hal qiluvchi roli mamlakat va viloyat eksport salohiyatini rivojlantirish va mustahkamlashda, tashqi iqtisodiy aloqalarni va viloyat munosabatlari erkinlashtirishda ular faoliyatining normal ishlashiga etarli shart—sharoit yaratish va uni ra'batlantirishning yagona davlat tizimini vujudga keltirishda namoyon bo'ladi. Bunda esa xorijiy sarmoyalarni jalb etish ham ancha samara berishi shubhasizdir.

### **2.3. Namangan viloyatida qo'shma korxonalarining rivojlanish xususiyatlari**

Bozor munosabatlariga o'tish jarayonida chet el investitsiyalari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlovchi muxim omildir. Hozirgi paytda ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyot mo'jizasini yaratayotgan Janubiy Koreya, Singapur, Tayvan, Xitoy kabi davlatlar ham dastlabki o'tish davrida chet el investitsiyalaridan unumli foydalanganlar. Amaliyot shundan

dalolat bermoqdaki, xorijiy investitsiya har ikki tomon uchun manfaat keltiruvchi muhim sarmoya manbaidir. Chunki, sarmoyadorlar uchun ularning tasarrufidagi kapitalni ko'payishiga yordam bersa, kapital kiritilgan mamlakat uchun ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ko'maklashadi.

Respublikamizning barcha hududlarida ishlab chiqarish korxonalarini faoliyatini rivojlantirish va ular ishlab chiqarayotgan mahsulotlar raqobatbardoshlik darajasini jahon talablariga etkazish uchun qator tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Bu borada Namangan viloyatida ham sezilarli ishlar bajarilmoqda. So'nggi yillarda qator korxonalarda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari joriy qilindi va bu jarayon davom etmoqda.

Viloyatimiz iqtisodiyotini integratsiyalashda xorijiy investitsiyalarning to'tgan o'rni alohida ahamiyatga egadir. Hozirgi, kunda viloyatimiz iqtisodiyotiga globalashtirish jarayonini harakatga keltiruvchi kuchlardan biri sifatida bevosita xorijiy investitsiyalar jalb qilinmoqda. Xorijiy investitsiyalarini imkoni boricha ko'proq jalb etish va ulardan samarali foydalanish iqtisodiyotning real sektorlarini taraqqiy ettirish uchun foyat dolzarb bo'lib qolmoqda.

Iqtisodiyotning hozirgi ahvoli faqat viloyatning o'z resurslariga umid bo'lash imkonini bermaydi va shu sababli iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash uchun xorijdan sarmoyalarni jalb etishga to'rri keladi. Buning samarali yo'llaridan biri qo'shma korxonalar tashqil etishdir.

SHu bois, viloyatimizda xorijiy investitsiyalar va zamonaviy texnologiyalarni jalb qilish uchun yangi qo'shma korxonalarini tashqil etish; mahalliy xom ashyo va ishchi kuchlaridan foydalangan holda import o'rnini bosuvchi va eksportbop mahsulotlarni, shu jumladan xalq iste'mol mollari ishlab chiqarishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Hozirgi kunda respublikamizda, xususan viloyatimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishda faoliyat ko'rsatayotgan qo'shma korxonalarini o'rni katta.

Viloyatda investitsiya makonini shakllanishiga ma'lum darajada bojxona tizimi tartiblari ham ta'sir ko'rsatadi. Ular o'z navbatida quyidagi vazifalar echimini taqozo etadi:

- eksport va import tovarlar o'rtasidagi nisbatni, O'zbekiston Respublikasi, qolaversa, viloyatimiz hududidagi valyuta daromaddari va xarajatlarini optimal (qulay) darajada ushlab turish;

- viloyatimiz iqtisodiyotini noqulay chetdagi raqobatlardan himoya qilish, ya'ni proteksionistik siyosat olib borish;

- viloyat iqtisodiyotining dunyo iqtisodiyotining etakchi mamlakatlari bilan aloqalari rivojlanishiga, jahon xo'jaligi tizimiga kirib borishi uchun sharoitlar yaratib berish;

- chet el investitsiyalarini jalb qilishga qulayliklar yaratib berish.

Viloyatdagi qo'shma korxonalarining asosiy qismi Namangan shahrida hududiy jihatdan mujassamlashgan. SHuningdek, Davlatobod, Kosonsoy, Turakurgon va YAngikurgon tumanlaridan bir muncha ko'p ekanligini qurish mumkin. Uchqo'rfon, CHust va Mingbulok tumanlarida esa, aksincha qo'shma korxonalar soni kam.

Namangan shahri hamda tumanlar qo'shma korxonalarining sanoatdagi tarmoqlari bo'yicha tahlili shuni ko'rsatadiki, barcha hududlarda ko'proq engil va oziq-ovqat, to'qimachilik sohaslaridagi qo'shma korxonalar nisbatan yaxshi rivojlangan.

### Namangan viloyatida qo'shma korxonalarining hududiy joylashuvi

#### 8-jadval

(2011 y. 1 aprel holatiga).

Tumanlar	Jami qo'shma korxonalar
Namangan shahri	29
Davlatobod tumani	10
Kosonsoy tumani	12
Mingbulok tumani	2
Namangan tumani	3
Norin tumani	2
Pop tumani	4

Turakurgon tumani	5
Uychi tumani	3
Uchkurgon tumani	1
CHortok tumani	3
CHust tumani	1
YAngikurgon tumani	5
Viloyat bo'yicha jami	80

**Manba: Viloyat iqtisodiyot bosh boshqarmasi va statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tayorlandi.**

Ta'kidlash joizki, engil va ayniqsa, to'qimachilik tarmoqlaridagi qo'shma korxonalar deyarli barcha tumanlar uchun maqbul soha hisoblanadi. Ularning bunday tarqalishi asosan xom-ashyo (paxta va pilla tolalari), etarli darajadagi ishchi kuchi va iste'mol omillari bilan izohlanadi. Ammo, ushbu tarmoq o'zining keng geografik ko'lami kengligiga qaramasdan, ko'proq Namangan viloyati uchun Pop, Kosonsoy, Norin hamda Namangan shahrida uyfunlik kasb etadi. Jumladan, ular qatoriga «Pop-Fen», «Kosonsoy - Tekmen», «Klayna Tekstil», «Asnam - Tekstil», kabi qo'shma korxonalarini misol qilib ko'rsatish mumkin.

Ayni vaqtda viloyatimizning, Kosonsoy, YAngiqo'rg'on, CHortoq, Davlatobod tumanlarida oziq-ovqat sanoati tarmoqlaridagi ko'shma korxonalar ham mavjud bo'lib, bo'dorchilik, uzumchilik va sabzavot etishtirish negizida va aholi talabining o'sib borishi ta'sirida ushbu sanoat tarmori tashqil etilgan. Bu esa, viloyatda qulay investitsion muhitning barpo etilayotganidan dalolat beradi.

Viloyatga investitsiya resurslarini jalb qilishda ishlab chiqarishning mahalliy omillarini e'tiborga olgan holda yondashilmoqda. Natijada, o'tgan yillarda asosan engil sanoat, qayta ishlash sanoati korxonalarining ma'lum qismi qayta jihozlanadi.

Mazkur ishlab chiqarish korxonalari hududidagi ko'pgina ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishda o'z hissalarini qo'shishmoqda.

Qo'shma korxonalarda mahsulot eksport qilish yo'lga qo'yilayotganligi natijasida noan'anaviy mahsulotlar eksporta hajmi o'tgan yillarga nisbatan bir muncha o'sib bordi.

Viloyatga xorijiy investitsiyalarni joylashtirishda hududning tabiiy resurslari, mahalliy aholining hayot tarzi, uning malakasi, mentaliteta hisobga olinishi muhimdir. SHu voqealikdan kelib chiqib, kunda viloyatdagi sanoat komplekslari birin-ketin texnologik qayta jixozlantirilmoqda. O'tgan yillarda, asosan, engil sanoat, qayta ishlash sanoati korxonalarining ma'lum qismi qayta jixozlanadi. Viloyatda engil sanoatning yangi tarmoqlari; paxta tolasini, junni, terini qayta ishlash korxonalari barpo etiladi.

Barcha mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyotga, asosan xorijiy investitsiyalarni ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohaslariga oqilona joylashtirish natijasida erishgan. Janubiy - SHarqiy Osiyo, O'rta Er dengizi mamlakatlari hamda yirik rivojlangan mamlakatlarni misol sifatid keltirish mumkin. 80 - yillarda AQSH 80 foiz korxonalarini xorijiy investitsiyalar orqali sotib olgan. Misr Arab Respublikasi iqtisodiy rivojlanish jarayonida xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda "VOT" (buld, Operate, Transfer) chizmasidan keng foydalangan. Bu chizmada loyihani moliyalashtiruvchi xorijiy investor investitsiya jalb qilinayotgan mamlakat hukumati bilan ma'lum muddatga (20-30 yilga) shartnoma tuzib, loyihani o'z mablafi hisobidan amalga oshiradi, uni ekspluatatsiya qiladi va shartnoma muddati tugagandan so'ng shu davlatga topshirib ketadi. Bunday investitsiyadan har ikkala tomon ham manfaat ko'radi.

Xorijiy investorlarning mablafalarini hududga jalb qilish uchun hududda barcha bozor infratizimlari va zarur kommunikatsiya vositalari rivojlangan bo'lishi kerak. Bu xorijiy investitsiyalar kirib kelishining zarur shartidir. Banklar, birjalar, har xil moliyaviy xizmat ko'rsatish fondlari, soliq idoralari va boshqa iqtisodiy, moliyaviy institutlarning to'laqonli faliyat ko'rsatishi ham xorijiy investitsiyalarni kirib kelishida asosiy o'rin tutadi.

Viloyatda eksport sanoatini rivojlantirishda qator muammolar ham mavjud. Bu, avvalo, har bir mamlakatning ma`lum bir davrda sarmoyalar taqchilligini o`z boshidan kechirishi bilan borliqdir.

Viloyatga jalb qilinayotgan xorijiy investitsiyalar manbalarini tahlili shuni ko`rsatmoqdaki, aksariyat investitsiya loyihalari xorijiy banklarning hukumat kafolatlari bilan ta`minlangan kreditlari hisobiga amalga oshirilgan. Ko`pgina qo`shma korxonalarining xorijiy ta`sischilari faqatgina texnologik dastgohlarni keltirishda vositachilik vazifasini bajarishdan nariga o`tishmayapti. YA`ni xorijiy ta`sischilar qo`shma korxonaga ajratilgan kreditlar hisobiga o`z dastgohlarini sotish va shu orqali o`z foydasiga ega bo`lish bilan kifoyalanmoqda. Mahsulot ishlab chiqarish, uni eksport qilish, korxonani rivojlantirish masalalari bo`yicha nizom majburiyatlarini turli xil bahonalar bilan bajarishmayapti. Oqibatda, qo`shma korxonalarining to`la quvvatlarda ishlashi, raqobatlaridan mahsulot ishlab chiqarish va ularning eksport qilishga erishilmayapti. Bu esa o`z navbatida, u xorijiy kreditlarni o`z vaqtida qaytarilishiga to`sqinlik qilmoqda. Korxonaning o`z valyuta tushumlari etishmaydi. Bu kredit qarzlarni respublika valyuta resurslari hisobidan to`lashga olib kelmoqda.

2011 yilning yanvar-dekabr oylarida asosiy kapitalni ko`paytirishga jami 663209,1 mln. so`m miqdorida investitsiyalar kiritildi va 2010 yil yanvar-dekabr oyiga nisbatan o`shirish sur`ati 105,5 foizni tashkil qildi.

**Moliyalashtirish manbalari bo`yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning taqsimlanishi quyida keltirilgan:**

### 9-jadval

Jamiga nisbatan foiz xisobida

	Jami investitsiyalar, mln. so`m	SHu jumladan moliyalashtirish manbalari bo`yicha				
		respublika byud-jeti	korxonalar va axoli mab-larlari	chet el inves-titsiya-lari va kredit-lari	bank kreditlari va boshqa qarz mab-larlari	byud-jetdan tashqari fondlar mab-larlari
<b>Jami</b>	<b>663209,1</b>	<b>6,5</b>	<b>68,9</b>	<b>4,5</b>	<b>14,5</b>	<b>5,6</b>
shu jumladan mulkchilik shakllari bo`yicha:						
davlat	161847,9	26,8	46,0	3,3	1,1	22,8
nodavlat	501361,2	-	76,4	4,8	18,8	-

Iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarida chet el investitsiyalari va kreditlarini o`zlashtirish quyidagi ma`lumotlarda ifodalanadi:

chet el investitsiyalari va kreditlarining umumiy xajmiga nisbatan foiz xisobida

### **Oshibka! Oshibka svyazi.**

Asosiy kapitalga o`zlashtirilgan investitsiyalar umumiy xajmining	299473,5 mln. so`mi
yoki 45,2,0 foizi ishlab chiqarish tarmoqlariga	
yo`naltirildi, noishlab chiqarish tarmoqlariga	363735,6 mln.so`m yoki
54,8 foizi yunaltrildi	

Hozirgi kunda Rossiya Federatsiyasi hamda Turkiya respublikalari viloyatimizga yirik sarmoya qo`yuvchilardandir. AQSH, Germaniya, Italiya, Yaponiya, SHveysariya, Gollandiya, Ispaniya, Kanada, Frantsiya, Xitoy, Litva, Gongkong, Pol'sha, Isroil, Gruziya, CHexiya, Pokiston, Qirg'iziston va boshqa mamlakatlar sarmoyadorlarining viloyatimizga qiziqishi ortib bormoqda. Ushbu xorijiy, investitsiyalar ishtirokidagi qo`shma korxonalar tomonidan tabiiy sharbatlar, konserva, teri mahsulotlari, avtomobil shinalari, junli gazlamalar, ip, ipak kalavasi, sut va sut mahsulotlari, mineral suvlar, salqin va spirtli ichimliklar, qo`lda to`qilgan gilamlar, sochiq, bir marotaba ishlatiladigan shprintslar, gaz va suv hisoblagichlari, qo`roz va karton ishlab chiqarilmoqda hamda aloqa va savdo xizmatlark ko`rsatilmoqda.

SHuningdek, yaqin kelajakda viloyatdagi qo`shma korxonalar tomonidan elektron tarozilar, kassa apparatlari, tibbiyot mahsulotlari, oqava suvlarini tozalash inshootlari uchun moslama hamda nasoslarni ishlab chiqarish yo`lga qo`yiladi. Bugungi kunda, viloyatdagi mavjud qo`shma korxonalarda 5760 nafar ishchi mehnat qilmoqda. Viloyatda jami sanoatda band bo`lganlarning 14,5 foizi qo`shma korxonalar hissasiga to`fri kelmoqda.

Jumladan, viloyatdagi xorijiy investitsiyalar ishtirokida tashqil etilgan ilfor qo`shma korxonalaridan hisoblangan razna ipak ishlab chiqarishga ixtisoslashgan O`zbekiston Yaponiya «Silk -Road», sut va sut mahsulotlarini qayta ishlashga ixtisoslashgan O`zbekiston - SHveysariya «Nestle - O`zbekiston», paxta tolasini qayta ishlashga ixtisoslashgan O`zbekiston-Turkiya hamkorligidagi «Asnamtekstil`» hamda «Pop-fen», tabiiy sharbat va meva konsentrati ishlab chiqarishga ixtisoslashgan O`zbekiston-SHveysariya «Marval Djus Ko» hamda meva va sabzavotlarni qayta ishlovchi O`zbekiston -Gollandiya «SHirinlik», yuqori sifatli yozuv qo`roz ishlab chiqarishga ixtisoslashgan O`zbekiston – Angliya- Germaniya «Nam bum», bir marotaba ishlatiladigan shprints ishlab chiqarishga ixtisoslashgan O`zbekiston-Rossiya «SHifo», ip kalavasi ishlab chiqarishga ixtisoslashgan O`zbekiston-Litva «Klayna Tekstil» kabi korxonalar viloyat iqtisodiyotining yanada barqarorlashtirishda ulkan hissalarini qo`shib kelmoqdalar.

Amalga oshirilayotgan ijobiy ishlar bilan cheklanib qolmasdan, balki bundan keyin ham qo`shma korxonalar faoliyatini yanada taraqqiy ettirish, ichki bozorni sifatli. va raqobatbardosh mahsulotlar bilan boyitish, eksport salohiyatidan to`laqonli foydalanish hamda barcha jabhalarda ularga yaqindan yordam berishni maqsad qilib olmoq lozim.

Umuman olganda, viloyatda investitsiya faoliyatini hamda tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada kuchaytirish uchun qulay shart sharoitlar yaratilgandir.

### **III. BOB. NAMANGAN VILOYATIDA TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI**

#### **3. 1. Namangan viloyatida tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish muammolari**

O`zbekiston mustaqilligi mustahkamlanib borayotgan bir sharoitda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish va mustahkamlash, jahon xo`jalik aloqalariga birlashish uchun va yo`llarini belgilash asosida vazifalarimizdan biri bo`lib hisoblanadi. Respublikada iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning hozirgi bosqichida tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish va rivojlantirish muammolarini hal etish eng ustuvor yo`nalishlardan hisoblanadi. Xususan, butun mamlakatda bo`lgani kabi Namangan viloyatida ham barqaror iqtisodiy o`shishni ta`minlashda ko`p jihatdan uning jahon xo`jaligiga yanada integratsiyalashuviga, tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish: muammolarini hal etish va eksport salohiyatini kengaytirish bo`yicha amalga

o'shirayotgan chora—tadbirlarning aniq natijalari ko'zga tashlanmoqda.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishning asosiy muammolaridan biri-eksportdir. Qisqa muddatlarda xalq xo'jaligi tarmoqlari va alohida ishlab chiqarish turlarining ma'lum bozorlarga yo'naltirilgan eksport bazasini yo'naltirishning aniq tadbirlarini ishlab chiqish kerak bo'ladi. SHu maqsadda asosiy e'tibor mamlakatimiz uchun an'anaviy bo'lgan eksport mahsulotlari-paxta, ipak, qorako'l, meva-sabzavot konservalari kabilarni raqobatbopligini oshirishga qaratilmoqda.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlab chiqaruvchi korxonaning import operatsiyalaridan maqsadi nou-xau, yangi texnologiya, materiallar, xom -ashyo sotib olish evaziga ishlab chiqarishni zamonaviylashtirishdir. YAngi texnologiya va uskunalarni chetdan xarid qilish ishlab chiqarilayotgan buyumlarning yuqori sifatini ta'minlaydi, ishlab chiqarish chiqimlarini qisqartiradi, mahsulotning raqobatbardoshligini ko'taradi. Mahsulotga material sarfini kamaytiradi, yoqil'ri-energetik resurslari tejaladi, mahsulotning ichki bozori kengayadi. SHu jihatlar hisobga olingan holda Namangan viloyati hokimligi tomonidan «2005 yilgacha bo'lgan davrda viloyatning eksport salohiyatini rivojlantirish mintaqaviy dasturi» ishlab chiqilgan bo'lib, unda qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash sanoatiga katta e'tibor qaratilgan. Faoliyat ko'rsatayotgan qayta ishlash sanoati eksport salohiyatini oshirish strategiyasi mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini qayta jihozlash va rekonstruksiyalash, shuningdek raqobatbardosh eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'zda tutadi.

Namangan viloyatida ijobiy o'zgarishlarga qaramasdan tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida hal etilishi lozim bo'lgan muammolar ham mavjud. Hozirga qadar eksportning asosiy qismini xom-ashyo mahsulotlari tashqil etadi. Bizning hisob-kitoblarimizga ko'ra viloyatda bugungi kunda eksportning taxminan 70-75 foizi hom ashyo mahsulotlari hissasiga to'g'ri keladi.

Bu holat tashqi savdo aylanmasi dinamikasini jahon bozoridagi xom-ashyolar narxlarining kon'yunkturasiga bo'liq qilib qo'yadi.

SHu bilan birga import bo'yicha ommaviy ochiq tanlovlarning mavjud emasligi, eksportchilarni kredit va marketing jihatidan qo'llab-quvvatlashning zaifligi, korxonalarining tashqi bozorlarga mustaqil chiqishlaridagi qiyinchiliklar, eksport mahsulotlarida xalqaro sertifikatlarining mavjud emasligi ham tashqi iqtisodiy faoliyat rivojlanishiga aks ta'sir qiluvchi omillardan sanaladi.

Viloyat bo'yicha bajarilgan jami tashqi savdo aylanmasida Namangan shahri, Kosonsoy, Uchqo'rg'on, To'raqur'g'on, Mingbuloq va Davlatobod tumanlari ancha sust darajada ishtirok etganini ko'rib turibmiz. Bunga asosan shahar va tumanlardagi korxonalar, ishlab chiqargan tovar va xizmatlarni tashqi bozorlarga chiqishdagi mavjud to'siq va muammolarni mavjudligidir.

Tashqi bozorlarga chiqish hech bir korxonaga uchun oson kechadigan jarayon emas. Bunda korxonalar tashqi bozorga chiqishdan oldin talaygina katta va kichik muammolarga (chet el qonunchiligi, yangi muhit, iste'molchilar, mahsulot, tashqiliy tuzilma, vositachilar, etkazib beruvchilar, shartnoma va to'lov shartlari va boshqalar) e'tibor berishlari kerak bo'ladi. Tabiiyki, korxonalar tashqi bozorga chiqishda ma'lum qiyinchiliklar va to'siqlarga uchraydilar.

Tashqi bozorda raqobat tobora keskin tus olib, u erda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yangi raqobatchini iloji boricha bozorga qo'ymaslikka intiladi. Raqobatchilarning bozordagi ulushlarini va mavqe'larini saqlab qolish uchun yangi kirib kelayotgan korxonalaraga agressiv munosabatda bo'lishlari katta muammo sanaladi. Bunda raqobatchilar o'z bozorlarini himoya etish maqsadida vositachilar, etkazib beruvchilar va ulgurji savdo korxonalari bilan kelishib ish to'tishlari yoki narxni ataylab pasaytirishlar va hatto, o'zlaridagi katta moliyaviy mabla'ni jalb etibg bozordagi ulushlarini har qanday nopok vositalar bilan saqlab qolishga intilishi mumkin.

Tashqi bozorlarda faoliyat olib borish davomida korxonaga kutilmagan siyosiy, iqtisodiy va boshqa xatarlarga uchrashi mumkin.

Namangan viloyatida tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishda kichik va o'rta biznes tuzilmalarining ishtiroki katta, albatta. Lekin shunday bo'lsada, kichik va o'rta biznesning bugungi kundagi tashqi iqtisodiy faoliyatdagi ishtirokining rivojlanishini qoniqarli deb bulmaydi. Kichik va o'rta biznes tuzilmalarining tashqi iqtisodiy faoliyatdagi bunday sust ishtirokiga ushbu

sub`ektlar xo`jalik faoliyatidagi asosiy e`tibor mahalliy iste`molni qondirishni ko`zda to`nganligi, ular faoliyat yo`nalishlarida ichki ehtiyoj doirasida muhim rol o`ynovchi dehqon xo`jaliklari, maishiy xizmat, chakana savdo, umumiy ovqatlanish kabi tuzilmalarning keng tashqil qilinganligi, qolaversa, kichik va o`rta biznes sub`ektlarining jahon bozorlariga chiqishda bir qator muammolarning mavjudligi kabilar sabab bo`lmoqda.

Kichik va o`rta biznes tuzilmalarining jahon bozorlariga chiqishda duch kelayotgan asosiy muammolar negizini mamlakatimizning, qolaversa viloyatimizning geografik joylashuvi, mintaqadagi ijtimoiy siyosat vaziyatning beqarorligi va mintaqa davlatlari o`rtasida iqtisodiy hamkorlikning sust rivojlanayotganligi, tashqi transport aloqalari marshrutlarining cheklanganligi, buning natijasida boj, tranzit to`lovlarining yuqori holda saqlanib qolayotganligi qolaversa, respublika hududiy tuzilmalarida kichik va o`rta biznes sub`ektlarini tashqi iqtisodiy faoliyatga jalb qilish bo`yicha etarli e`tiborning berilmayotganligi kabilar tashqil qiladi.

Bundan tashqari yangi bozorni o`rganish, marketing tadqiqotlarini olib borish, biznesni tashqil etishda xorijiy davlatdagi o`ziga xos siyosiy-huquqiy, iqtisodiy-ijtimoiy, fan-texnika, madaniy-milliy hamda jufrofiy xususiyatlarni chuqur tahlil etish muammolari ham kichik va o`rta biznes korxonalarini tashqi bozorlarga kirib borishlarida ma`lum darajada qiyinchilik va to`siqlar paydo qiladi.

Bizningcha kichik va o`rta biznes sub`ektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatdagi ishtirokini oshirishda quyidagilarga katta e`tibor qaratish zarur:

➤ viloyat hududiy tuzilmalarida eksportga moyil ustuvor sohalarga kengroq e`tibor qaratish va bu sohalarda ishlab chiqarish sub`ektlarining moliyaviy barqarorligini ta`minlashga dasturiy yondoshish. Viloyatdagi tumanlar bo`yicha ishlab chiqarilgan eksportni rivojlantirish dasturlari ijrosiga kichik va o`rta biznes sub`ektlarini kengroq jalb qilish;

➤ kichik va o`rta biznes sub`ektlarini tashqi bozorlar bo`yicha etarli axborotlar bilan ta`minlash mexanizmini tashqil qilish;

➤ kichik va o`rta biznes sub`ektlarining tashqi bozorlarga chiqishda qulaylik ta`minlash maqsadida transport, ombor, konsalting va birja xizmatlarini ko`rsatish bo`yicha tuzilmalar faoliyatini yo`lga qo`yish zarur. Bugungi kunda bunday tuzilmalar faoliyatini nafaqat viloyat ichkarisida, balki, tashqarida ham tashqil etish zarurati mavjud;

➤ kichik va o`rta biznes sub`ektlarini yangi texnika va texnologiyalar, kredit resurslari bilan ta`minlash bo`yicha imtiyozli ta`minot tizimini shakllantirish lozim. Hozirgi kunda qishloq xo`jaligi korxonalarini uchun texnika vositalarini lizing shartnomalari bo`yicha berish tizimini sanoat, qurilish, aloqa va boshqa tarmoqlarda ham qo`llash bu borada kutilgan samarani beradi.

Kichik va o`rta biznes korxonalarining tashqi bozorlarga chiqishlari ularning faoliyatiga bevosita yoki bilvosita ta`sir etadigan ma`lum omillar natijasida amalga oshiriladi.

YUqorida ko`rib o`tilgan asosiy omillar haqida to`liq tasavvurga ega bo`lish hamda tashqi bozorlarga kirib borishdagi mavjud to`siq va muammolarni aniq tushinib etish korxonalar tomonidan puxta o`ylangan eksport strategiyasini amalga oshirish imkonini beradi.

Bundan tashqari shuni ta`kidlab o`tish lozimki, Namangan viloyati iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etish ham muhim ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishga ya`ni bo`sh turgan ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanishga erishish, mahalliy xom ashyodan import o`rnini bosuvchi va eksportbop mahsulotlarni ishlab chiqarish hamda aholini ish bilan ta`minlashga ko`maklashadi. Bu esa o`z navbatida, milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish uchun birinchi galda, ular uchun qulay muhit, kafolat va rafbatalantiruv iqtisodiy omillarni kuchaytirilishini taqozo etadi.

Albatta, to`la ishonch bilan aytish mumkinki, bugungi kunda viloyatda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish muammolari investitsiya faoliyatini hamda, tashqi iqtisodiy aloqalarni yanada kuchaytirish borasida keng ko`lamli shart-sharoitlar yaratilgan va shuni ta`kidlash kerakki, viloyatning tashqi iqtisodiy aloqalari nafaqat ikki tomonlama, balki har tomonlama rivojlanib bormoqda.

### **3.2 Namangan viloyatida tashqi iqtisodiy faoliyatni**

## rivojlantirish istiqbollari

Namangan viloyatining jahon iqtisodiy hamjamiyatga integratsiyalashuvi hamda yaqin va uzoq xorijiy mamlakatlar bilan yangi turdagi tashqi iqtisodiy aloqalarning yo'lga qo'yilishi nafaqat yangi korxonalarini tashqil etish, balki mavjud ishlab chiqarish korxonalarini modernizatsiya qilish va texnik jihatdan qayta qurollantirish va shuningdek, yuqori qo'shilgan qiymat ulushiga ega bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishini ta'minlovchi zamonaviy, ilfor korxonalarini tashqil etishga qaratildi.

Raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish korxonalarining samarali ishlashi va beqiyos rivojlanishining zaruriy sharti bo'lib qolmoqda. Barcha turdagi yangi tovarlar sanoat tarmoqlari, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi qo'shma korxonalar, xususiy korxonalar, kichik va o'rta biznes korxonalarini tomonidan o'zlashtirib borilmoqda. Jumladan, ayni vaqtda milliy iqtisodiyotda o'z mustahkam mavqeiga ega bo'lib ulgurgan kichik va o'rta biznes tuzilmalari ham viloyat tashqi iqtisodiy faoliyatining faol ishtirokchisiga aylanib bormoqda. Aynan kichik va o'rta biznes tuzilmalarini mahalliy xom-ashyo asosida eksport bop mahsulotlar tayyorlash tizimida eng istiqbolli xo'jalik sub'ektlari sifatida baholash mumkin. Bu iqtisodiyotning eksportga yo'naltirilgan tarkibini shakllantirish bo'yicha belgilangan keng miqyosli tadbirlar bilan bo'liq bo'lib, bu tadbirlarning birinchi bosqichida aynan mahalliy xom - ashyo asosida tayyor mahsulot ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish va uning eksportga yo'naltirilganlik darajasini oshirish ko'zda tutilgan.

Bugungi kunda kichik va o'rta biznes korxonalarini tashqi iqtisodiy faoliyatining asosiy yo'nalishi tashqi savdo operatsiyalari bilan bo'liqdir.

Bugungi kunda, viloyatdagi kichik va o'rta biznes sub'ektlari tomonidan bir necha xil yangi eksportbop, import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Masalan, Kosonsoy tumanidagi «Nam-Kon» kichik korxonasi Isroil texnologiyasi bo'yicha mahalliy xom ashyodan olti turdagi meva va sabzavot sharbatlarini ishlab chiqarmoqda. CHortoqdagi «Bolajon» xususiy firmasida 15 xil turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish yo'lga qo'yilganligini ham faqat olqishlash mumkin. YOki CHust tumanida joylashgan «Marmar -F» ma'suliyati cheklangan jamiyatni olaylik. Korxonada travertin, rakushechnik va marmar plitalari ishlab chiqarilib, xorijga, ya'ni AQSHning Kaliforniya shtatiga eksport qilinyapti.

Kichik va o'rta biznes korxonalarining mahsulotlarini eksport qilish hajmini oshirishga qaratilgan qulay shart-sharoitlarning yaratilishi natijasida 2002 yil mobaynida kichik va o'rta biznes sub'ektlari tomonidan 6893,8 ming AQSH dollari miqdorida eksport amalga oshirildi.

Bundan tashqari, viloyatimizda kichik va o'rta biznesga chet el investitsiyalarini jalb qilish ham jadal davom etmoqda 2011 yilda viloyatda 22 ta loyiha moliyalashtirildi. SHu bilan birga, umumiy investitsiya miqdori 1012,0 ming AQSH dollari va 4520,0 ming Evroga teng yana 8 ta loyihani moliyalashtirish bo'yicha ish olib borilyapti.

Ushbu korxonalar tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirish maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida kichik va o'rta biznes sub'ektlariga maslahat-axborot xizmatlar ko'rsatishni yo'lga qo'yish;
- marketing tadqiqotlariga buyurtmalar berish, tashqi savdo texnikasi dasturlarida qatnashish, bilimlar tarqatish va tashqi savdo masalalari bo'yicha asosiy axborotlarni berish;
- chet el investitsiyalarini olish uchun maslahatlar berish va hujjatlarni tayyorlash;
- chet elga eksport bop mahsulotlarni olib chiqishga ko'maklashish, maslahat, yo'l - yo'riqlar ko'rsatish;
- tashqi bozorlarga chiqish bo'yicha keng reklama qilinadigan seminar va konferentsiyalarni o'tkazish;
- bo'lajak bozorlarni o'rganishda, eksport qilishning texnikaviy masalalarini hal qilishda bepul maslahatlar va mahsulotning raqobatbardoshligi bo'yicha marketing tadqiqotlarni o'tkazish yo'li bilan yordam berish;
- «Tashqi iqtisodiy faoliyat» dasturi doirasida qishloq xo'jalik mahsulotini eksport

qilishga davlatning subsidiyalar berish;

➤ O'zbekiston tovarlari va xizmatlarini eksport qiluvchilar kichik va o'rta biznes korxonalariga o'rta va uzoq muddatli imtiyozli kreditlar berish;

➤ kichik va o'rta biznes korxonalarining tovarlar sotish hajmini oshirishni raqbatlantirish maqsadida ularga nisbatan past stavkalarda qo'shilgan qiymat solirini qo'llash lozim.

Kichik va o'rta biznes korxonalarining xorijiy valyutadagi tushumlarini valyuta xataridan himoya qilish maqsadida mamlakatimizda forvard bitimlari bozorini yuzaga keltirish lozim. Bu valyuta tushumdarini valyuta xataridan ishonchli himoya qilish imkonini beradi:

Viloyatlar miqyosida:

➤ viloyatlar tadbirkorlar palatasida tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha bo'limlarni tashqil qilish va ular orqali:

➤ savdo missiyalari va yarmarkalar tashqil etish yo'li bilan xorijiy sherik topishga yordam berish;

➤ xorijiy bozorlarni o'rganish;

➤ mahalliy tadbirkorlarga chet el tadbirkorlari bilan hamkorlik qilishda yordam berish;

➤ firmalar ish olib borishi ko'zda tutilgan mamlakatning savdoga doyr qonun hujjatlari haqida axborot berish maqsadga muvofiqdir.

Davlatimizning yana bir istiqbolli va rivojlanadigan tashqi iqtisodiy sohalaridan biri turizmdir. CHunki O'zbekistonda «Buyuk Ipak yo'li»ning markazida joylashgan. Mustaqillik tufayli Ushbu yo'l qayta tiklanib bormoqda. Bu turizm sohasidagi muammolarni hal qilishni yaqin kelajakdagi reja va dasturlariga kiritish hozirgi kunning eng muhim vazifalaridan biridir. Afsuski, xorijiy mehmonlarga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma hali etarli darajada rivojlangan emas. Jumladan, turistlarga viza berish yoki olish tartiblari etarlicha soddalashtirilmagan, turist agentliklarining xorijiy davlatlardagi bo'linmalari kam hamda marketing va reklama borasidagi ishlar sust.

Viloyatimizning yana bir muhim istiqbolli tashqi iqtisodiy yo'nalishi «inson kapitali»ni eksport qilishdir. CHunki bizda ushbu salohiyatni eksport qilish imkoniyati mavjud.

Ushbu yo'nalishni joriy qilishni, birinchidan, aholimizning o'z malakasini oshirishga imkon to'riladi. Ikkinchidan, bu mazkur yo'nalish viloyatga belgilangan miqdorda valyuta tushunmini keltiradi. Uchinchidan, mahalliy kadrlarimiz davlatimizni jahonga tanishtirish uchun qo'shimchacha imkon yaratadi. SHuningdek, ushbu kadrlarga maxsus kurslar yordamida til o'rgatishni amalga oshirish lozim.

Namangan viloyatining tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirish istiqboli va taktikasi jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv hamda bu borada maksimal foyda olishga qaratilishi kerak.

Kelgusida, Namangan viloyatida tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish va tashqi iqtisodiy majmuani yanada takomillashtirish borasida quyidagi masalalarni hal etish maqsadga muvofiqdir:

➤ Namangan viloyatida tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilari manfaatlarini ham ichki, ham tashqi bozorlarda himoya qilish;

➤ milliy iqtisodiyotning rivojlanishi va uning jahon iqtisodiyoti tizimiga integratsiyalashuvini raqbatlantirishga qaratilgan zaruriy shart-sharoitlarni yaratish;

➤ tashqi iqtisodiy faoliyatning davlat tomonidan tartibga solish tizimlarini yanada rivojlantirish;

➤ eksport salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlarini ishlab chiqish va ularning amalga oshirilishini ta'minlash;

➤ ishlab chiqaruvchilar va eksportyorlar faoliyatini har taraflama qo'llab-quvvatlovchi tizimlarni yanada takomillashtirish;

➤ viloyat iqtisodiyotining barcha jabhalarida raqobatbardosh va ilm talab mahsulotlarni ishlab chiqarishga mo'ljallangan xalqaro standartlarni joriy etish.

➤ xorijiy mamlakatlar bilan zamonaviy texnologiyalarni standartlashtirish,

metrologiya va sifatni sertifikatsiya qilish sohasida hamkorlik qilish ko'lamini yanada kengaytirish;

➤ xalqaro standart talablariga mos ravishda sifat ustidan nazorat tizimini joriy etish;

➤ tufriidan-to'fri xorijiy investitsiyalarni jalb etish va xalqaro standartlarga javob beradigan hamda jahon bozorida raqobatbardosh bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarish maqsadida viloyatimizning turli hududlarida qo'shma korxonalar yaratilishini ta'minlash va ko'paytirish.

➤ Namangan viloyatining xorijiy hamda MDX mamlakatlari va boshqa xalqaro huquq sub'ektlari bilan savdo—iqtisodiy va moliyaviy hamkorliklarini yanada kuchaytirish;

➤ kichik va o'rta biznes sub'ektlari tashqi iqtisodiy faoliyati rivojlanishiga hamkorlik qilish;

➤ Xalqaro transport kommunikatsiyalarini rivojlantirish orqali eksport tovarlarining transportda tashish harajatlarini kamaytirish.

Fikrimizcha, tashqi iqtisodiy faoliyatni takomillashtirish va yanada rivojlantirishga to'sqinlik qilib kelayotgan bunday muammolarning o'z vaqtida bartarf etilishi Namangan viloyatining, qolaversa mamlakatimizning jahon iqtisodiy hamjamiyatida samarali ishtirok etish imkonini beradi.

Xorijiy hamkorliklar bilan o'zaro foydali iqtisodiy hamkorlik o'rnatish va rivojlantirishga qaratilgan harakat sifatidagi tashqi iqtisodiy faoliyatning mohiyatidan kelib chiqib yangi qonunda mazkur faoliyatni amalga oshirishning asosi shakllari aniqlab berildi. Bular—alqaro iqtisodiy va moliyaviy hamkorlik; tashqi savdo faoliyati; xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va hokazo.

Ko'rib turibmizki, O'zbekiston Respublikasining «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'frisida»gi Qonuni viloyatimiz tashqi iqtisodiy faoliyatini yanada rivojlantirishga va uning istiqbolini mustahkamlashga yordam beradi. SHu bilan birga ushbu qonunda viloyat tashqi iqtisodiy faoliyati shakl va usullariga kiritilgan tuzatishlar, keyingi yillarda jahon xo'jalik tizimida ro'y bergan o'zgarishlarni har tomonlama hisobga olgan holda iqtisodiy aloqalarning jahon andozalariga javob beradigan zarur shart—sharoitlarni o'z vaqtida ta'minlash uchun javobgar bo'lgan davlatning yuksak rol' o'ynashidan dalolat beradi.

SHunday qilib, Namangan viloyatida tashqi iqtisodiy faoliyat mustaqillik yillarida respublikada, qolaversa viloyatda qabul qilingan barcha huquqiy hujjatlar asosida amalga oshirildi, bundan maqsad jahon xo'jalik tizimiga to'la qo'shilishdan iborat edi. Bu jarayon Namangan viloyatining jahon hamjamiyati mamlakatlari bilan savdo—iqtisodiy aloqalari izchil rivojlanib borayotganida ko'zga tashlanadi.

Namangan viloyati o'zining tashqi iqtisodiy siyostida sovet tuzumi tarqab ketgandan keyingi davrda vujudga kelgan mamlakatlarga ham alohida e'tibor bermoqda. Keyingi yillarda MDH mamlakatlari bilan iqtisodiy munosabatlar jadal rivojlanmoqda. U haqiqatda ilgari mavjud bo'lgan iqtisodiy aloqalarning tarkibiy davom etishi sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayni vaqtda viloyatimiz milliy iqtisodiyoti manfaatlari nuqtai nazaridan Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari va Rossiyaning iqtisodiy imkoniyatlari bir-biriga yaqinlashuviga katta qiziqish bilan qaramoqda.

YUqorida aytib o'tganimizdek viloyatimizda kichik va o'rta biznesni rivojlantirish va uni tashqi iqtisodiy faoliyatdagi ishtirokini oshirish maqsadida o'nlarча million dollar miqdorida kredit hisoblari ochilgan bo'lib, ularda ETTB Xalqaro moliya korporatsiyasi, tashqi iqtisodiy faoliyatlari ishtirok etmoqdalar.

SHunday qilib, viloyatimizda tashqi iqtisodiy faoliyatining davlat tomonidan boshqarilishi jahon andozalariga javob beradigan zarur huquqiy baza yaratish bilan birga, viloyatning jahon xo'jalik integratsiyasi jarayoniga dadil kirib borishga yordam bermoqda. SHak—shubhasiz, viloyatimizda amalga oshirilayotgan tashqi iqtisodiy siyosat viloyatimiz taraqqiyoti va kelgusi istiqbolining kafolati bo'lib xizmat qiladi.

## X U L O S A

Bugungi kunda respublikada tashqi iqtisodiy faoliyatni rəbatlantirish, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish xamda eksportbop maxsulot ishlab chiqarishni ragbatlantirish, ayniqsa mamlakat hududiy tuzilmalarining (viloyatlar) amaliy ishtirokini kuchaytirish muxim ahamiyatga ega. Samarali tashqi iqtisodiy faoliyatga erishish maqsadida import o`rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish va importni oqilona tashqil etish yuzasidan amaliy ishlarni olib borish lozim. Bu borada mahalliy xom -ashyo va resurslarga asoslanish bilan borliq davlat ustivor siyosatini amalga oshirish, tashqi savdo va to`lov balanslarini takomillashtirish va mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni tashqi bozorga chiqarish tizimi va tashqi savdo infratuzilmasining samaradorligini oshirish bo`yicha dasturlar majmuini ishlab chiqish talab etiladi. Bugunga kelib davlatning bunday rəbatlantiruvchi siyosati ta`sirida mamlakat xo`jalik tuzilmalarining katta qismi tashqi iqtisodiy faoliyatga jalb etilmoqda.

Namangan viloyati tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirish va unga to`sqinlik qilayotgan muammolarini xal etish uchun viloyatda xorijiy sarmoyadorlarni jalb etishni yanada kuchaytirish va huquqiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni takomillashtirish, faol eksport strategiyasiga o`tishni ta`minlash, uning tarmoq va geografik tarkibini takomillashtirish, eksport maxsulotlari kengaytirish va raqobatbardoshligini oshirish, xalqaro savdo iqtisodiy hamkorlikning zamon talblariga javob beradigan usul va uslubiyatlardan samarali foydalanishi maqsadga muvofiqdir.

Albatta, to`la ishonch bilan aytish mumkinki, xozirgi kunda viloyatda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish muammolarini xal qilish borasida investitsiya faoliyatini hamda, tashqi iqtisodiy aloqalarni yanada kuchaytirish borasida keng ko`lamli shart-sharoitlar yaratilgan va shuni ta`kidlash kerakki, viloyatning tashqi iqtisodiy aloqalari nafaqat ikki tomonlama, balki har tomonlama rivojlanib bormoqda.

Viloyat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun investitsiya faoliyatini takomillashtirish ustuvor ahamiyatga ega. endilikda investitsiya jarayonini isloh qilish zaruratga aylanib bormoqda.

**Birinchi**dan, mustaqillikning dastlabki yillarida belgilangan iqtisodiyotni o`zgartirish maqsad va vazifalari amalga oshirilganligi;

**Ikkinchi**dan, Respublika iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va ular puxtaligining poydevori va kafolati bo`lib xizmat qiladigan mustaxkam huquqiy negiz yaratilganligi;

**Uchinchi**dan, O`zbekiston qolaversa, Namangan viloyati halqaro huquq va jahon xo`jalik aloqalarining teng huquqli sub`ekti sifatida e`tirof etilganligi va qaror topganligi tufayli xunday bo`lmoqda.

Viloyatni MDH mamlakatlari va boshqa xalqaro huquq sub`ektlari bilan savdo-iqtisodiy va moliyaviy hamkorliklarini yanada rivojlantirish uchun, kichik va o`rta biznes sub`ektlari tashqi iqtisodiy faoliyati rivojlanishiga madad berish va xalqaro transport kommunikatsiyalarini rivojlantirish orqali eksport tovarlarining transportda tashish harajatlarini kamaytirish zarur.

Jumladan ayni vaqtda milliy iqtisodiyotda o`z mustaxkam mavqeiga ega bo`lib ulgurcan kichik va biznes tuzilmalari viloyat tashqi iqtisodiy faoliyatining faol ishtirokchisiga aylanib bormoqda.

Bizni fikrimizcha yuqorida ta`kidlab o`tganimizdek kichik va o`rta biznes sub`ektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatdagi ishtirokini oshirishdagi quyidagilarga katta e`tibor qaratish zarur:

➤ respublika hududiy tuzilmalarida eksportga moyil ustivor sohalarga kengroq e`tibor qaratish va bu sohalarda ishlab chiqarish sub`ektlarining moliyaviy barqarorligini ta`minlashga dasturiy yordoshish. Viloyatlar bo`yicha ishlab chiqilgan eskportni rivojlantirish dasturlari ijrosiga kichik va o`rta biznes sub`ektlarini kengroq jalb qilish;

➤ kichik va o`rta biznes sub`ektlarini tashqi bozorlar bo`yicha etarli axborotlar bilan ta`minlash mexanizmini tashqil qilish;

➤ kichik va o`rta biznes sub`ektlarining tashqi bozorlarga chiqishida qulaylik tu`dirish maqsadida transport, ombor, konsalting va birja xizmatlarini ko`rsatish bo`yicha tuzilmalar faoliyatini yo`lga qo`yish zarur. Bugungi kunda bunday tuzilmalar faoliyatini nafaqat mamlakat

ichkarisida, balki, tashqarida ham tashqil etish zaruriyati mavjud;

➤ kichik va o`rta biznes sub`ektlarini yangi texnika va texnologiyalar, kredit resurslari bilan ta`minlash bo`yicha imtiyozli ta`minot tizimini shakllantirish lozim. Hozirgi kunda qishloq xo`jaligi korxonalarini uchun texnika vositalarini lizing shartnomalari bo`yicha berish tizimini sanoat, qurilish, aloqa va boshqa tarmoqlarda ham qo`llash bu borada kutilgan samarani beradi.

Kichik va o`rta biznesni jadal rivojlantirishni davlat tomonidan qo`llab qo`vvatlash va ra`batlantirish borasida uning yalpi ichki maxsulot ishlab chiqarishda ulushini va tashqi iqtisodiy faoliyatda samarali ishtirokini oshirish bo`yicha yagona tizimni shakllantirish kerak.

YUqorida bildirilgan fikr-mulohazalar, keltirilgan ma`lumotlar va tahlillardan ko`rinib turibdiki, davlatning asosiy xal qiluvchi roli mamlakat va viloyat eksport salohiyatini rivojlantirish va mustaxkamlashda, tashqi iqtisodiy aloqalarni erkinlashtirishda ular faoliyatining normal ishlashiga etarli shart-sharoit yaratish va uni ra`batlantirishning yagona davlat tizimini vujudga keltirishda namoyon bo`ladi.

Tadqiqotlar xulosasi shuni ko`rsatadiki, kichik va o`rta biznes tuzilmalarining tashqi iqtisodiy faoliyatga jalb qilinishi respublikamizda tom ma`noda iqtisodiyotni erkinlashtirish va tadbirkorlikni qo`llab-quvvatlash, eng muhimi, iqtisodiyotda xususiy investitsiya ko`lamini oshirish imkonini beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RUYXATI FARMONLAR, QARORLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - Toshkent: - O'zbekiston, -1992. -46 b
2. O'zbekiston Respublikasining Tashqi iqtisodiy faoliyat to'risidagi Qonuni. Xalq so'zi 2000 yil sentyabr'.
3. O'zbekiston Respublikasining Tadbirkor va tadbirkorlar faoliyatining kafolatlari to'risidagi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi, № 5, 1999.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi faoliyatini tashqil etish to'risida»gi Qarori. 2002 yil 23 oktyabr'.
5. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarga barishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi, 2012 yil 20 yanvar', №14
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasi faoliyatini takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'risida. //Xalq so'zi.. 2006 yil 26 aprel'.
8. Karimov I. A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida Toshkent, O'zbekiston, 1995.47-59 b
9. Karimov I.A. O'zbekiston milliy istiqloq, iqtisod, s-iyosat, mafko'ra -tom. Toshkent, O'zbekiston, 1996-329 b.
10. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. 2 -tom. Toshkent, O'zbekiston, 1996. 31-56 b
11. Karimov I.A. O'zbekiston XX asr bo'sarasida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent, O'zbekiston, 1997 yil.78-96 b
12. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. Toshkent, 1998.68-81 b
13. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlari, Toshkent, O'zbekiston, 1993.-254 b
14. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqarorlik taraqqiyot yo'lida. 6—jild. T. O'zbekiston. 1998.48-64 b
15. Abdullaev O. Ismoilov R. Kichik va o'rta biznesni boshqarish. Namangan, 2001. 12-34 b
16. Abdullaev O. Namangan viloyati. Namangan, 1995. 23-42 b
17. Abdullaev O. Farrona vodiysi: ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish jarayonlari. Namangan, 2000. 29-57 b
18. Abdullaev O. Iqtisodiy geografiya va ekologiya. Namangan, 2002.32-84 b
19. Abdullaev O. Jumhuriyatlarda agrosanoat majmuasini tashqil qilish muammolari. Toshkent, Mehnat, 1989. .28-88 b
20. Axmedov e., Saidaminova 3. O'zbekiston Respublikasi (qisqacha ma'lumotnoma). T. 1998.31-39 b
22. Asanov G., Nabixanov I., Safarov 3. O'zbekistonning ijtimoiy—iqtisodiy geografiyasi. T. O'qituvchi. 1994.21-54 b
23. Abdullaev E. Statistika nazariyasi. Toshkent, 1997. 31-48 b
24. Ilhomova I. Investitsiyalarni jalb etish va uning samaradorligini oshirish - O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi, № 4, 2002. Jahon iqtisodiyoti. T. TDIU. 1994.12-57 b ;
25. Mahmudov A. Kichik va o'rta biznes tuzilmalarining tashqi iqtisodiy faoliyatidagi ishtiroki. Namangan. NMII. 2002.21-37 b
26. Maxmudov A. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tashqi iqtisodiy faoliyat Namangan. NamDU. 2003.14-32 b
27. Namangan shahar pasporti. Namangan, 2010
27. Namangan shahar pasporti. Namangan, 2011
- O'zbekiston milliy ensiklopedik ma'lumotnoma. - T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002

- 28.Razzokova M. Inomov SH. Namangan viloyati: investitsiya - holati—Bozor, pul va kredit, № 5, 2001.10-36 b
- 29.Razzoqov H. SHermatov F. eksport sanoati muammolari—Bozor, pul va kredit. № 5, 2000.24-38 b
- 30.Soliev A. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning dolzarb masalalari. T.1995 11-32 b
- 31.Fulomov S.S. Tadbirkorlik va kichik biznes. T. Mehnat. 1997.17-29 b
- 32.Usmonov F. Korxonalar eksport strategiyasi: omillar va muammolar—Bozor, pul va kredit, № 8, 2002.47-58 b
- 33.CHjen V.A., Maksudov F.N., Karimova G.I., Perper M.M., Bozor va ochiq iqtisodiyot. Toshkent, 1996.121-146 b
- 34.CHjen V.A., O`zbekistonda kichik va hususiy biznesni rivojlantirish. Toshkent, 1995.38-43 b
- 35.Ergashev YO. «YAnes» ning yangi rejalari. O`zbekiston iqtisodiy axborotnomasi, № 9, 2001 yil.
- 36.Ergashev T. Bozor iqtisodiyoti. Toshkent, O`qituvchi, 2002 yil.28-58 b
- 37.Ergashev T. Ismatov R Iqtisodiy savodxonlik asoslari. Toshkent, SHarq 2001.28-43 b..
- 38.Eshmuhammedova A. va boshqalar. Bozor munosabatlari sharoitida milliy iqtisodiyotning rivojlanishi. Toshkent, O`qituvchi, 1996. 27-68 b
- 39.Buvanova T.M., Radionova I.A. ekonomicheskaya geografiya SNG i stran Baltii. M. 1994.22-39 b.
- 40.Razzoqova M, Aminov SH. Navoiyskaya oblast': investitsionno`y 1 profil' Bozor, pul va kredit, № 6, 2002.84-91 b.
- 41.Tolkachev S.A. Mejdunarodnaya ekonomika. M., 2000.28-64 b
- 42.O`zbekiston milliy entsiklopediyasi. 1-jild. T. Davlat ilmiy nashriyoti. 2000.

#### **INTERNET SAYTLARI**

[www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)  
[www.ski.ilm.uz](http://www.ski.ilm.uz)  
[www.uhh.hawaii.edu](http://www.uhh.hawaii.edu)  
[www.ecfak.timacad.ru](http://www.ecfak.timacad.ru)  
[www.admin.ru](http://www.admin.ru)  
[www.tstu.ru](http://www.tstu.ru)  
<http://www.mcx.ru>